Маркерлар комбинацияси бўйича интеграл таҳлил шуни кўрсатдики: VEGF + Ki-67+ CD34 комбинацияси → ўсма агрессивлигини аниқ белгилайди, остеосаркома: юқори ангиогенез, юқори пролиферация → энг ёмон прогноз (жадвал 4).

Жадвал 4.


Иммуногистокимёвий профил

Ўсма тури	VEGF	Ki-67	CD34	Биологик баҳо
Остеосаркома	↑↑↑	↑↑↑	↑↑↑	Юқори агрессив
Хондросаркома	↑↑	↑↑	↑↑↑	Ўрта
Фибросаркома	↑	↑	↑↑↑	Нисбатан паст

Диаграммада (4) турли ўсма турларида иммуногистокимёвий маркерлар экспрессиясининг қиёсий баҳоси келтирилган. Остеосаркомада VEGF, Ki-67 ва CD34 маркерларининг юқори даражада (↑↑↑) экспрессияси кузатилиб, бу унинг юқори агрессив биологик хусусиятга эгалигини кўрсатади.

Хондросаркомада VEGF ва Ki-67 ўрта даражада (↑↑), CD34 эса юқори (↑↑↑) бўлиб, бу ўсманинг ўртача агрессивлигини тасдиқлайди.

Фибросаркомада VEGF ва Ki-67 паст даражада (↑), CD34 эса юқори (↑↑↑) бўлиб, нисбатан паст пролифератив фаолликка қарамасдан, ангиогенез жараёни сақланиб қолганлигини кўрсатади.



4-диаграмма. Саркомаларда иммуногистокимёвий профил (VEGF, Ki-67, CD34).

Ушбу тадқиқотда суяк, тоғай ва юмшоқ тўқима хавфли ўсмаларида иммуногистокимёвий маркерлар - VEGF, Ki-67 ва CD34 экспрессияси таҳлил қилиниб, уларнинг ўсма биологиясидаги аҳамияти аниқланди. Олинган натижалар саркомаларда ангиогенез, пролиферация ва микротомир архитектурасининг ўзаро боғлиқ эканлигини кўрсатди.

Олинган натижалар мухокаси.

Тадқиқот натижаларига кўра, барча ўсма турларида VEGF экспрессияси 100% ҳолатда юқори даражада аниқланди. Бу ҳолат саркомаларда ангиогенез жараёнининг фаоллигини кўрсатади. Ferrara N. (2004) тадқиқотларида VEGF ўсма ангиогенезининг асосий регулятори сифатида тавсифланган бўлиб, унинг юқори экспрессияси ўсма ўсиши ва метастазланиши билан боғлиқ эканлиги қайд этилган. Folkman J. (2002) эса ангиогенезни ўсма прогрессиясининг “калит механизми” сифатида таърифлайди. Бизнинг натижаларимиз ҳам ушбу назарияларни тасдиқлайди, айниқса остеосаркомада микротомир зичлигининг юқори (20–30) бўлиши интенсив васкуляризациядан далолат беради.

Аниқланган морфологик белгилар: ангиоматоз томирлар, гиперхром ядролар, патологик митозлар VEGF фаоллиги билан тўғридан-тўғри боғлиқ эканлиги кузатилади.

Демак,VEGF юқори экспрессияси → ангиогенез ↑→ ўсма озиқланиши↑ → прогрессия тезлашиши кузатилади. Ki-67 ва пролифератив фаолликни бахолаш бўйича **о**линган натижаларга кўра, остеосаркомада Ki-67 юқори даражада (70%) кузатилди, бу унинг юқори агрессивлигини кўрсатади. Scholzen T., Gerdes J. (2000) ишларида Ki-67 пролиферация индекси сифатида баҳоланиб, унинг юқори кўрсаткичлари ноқулай прогноз билан боғлиқ эканлиги таъкидланган. Brown D.C. (1996) ҳам Ki-67 юқори бўлган ўсмаларда митотик фаоллик юқори бўлишини қайд этган.

Хондросаркомада ўрта даражали (50%), фибросаркомада эса паст даражали

(40%) кўрсаткичлар аниқланди, бу уларнинг нисбатан кам агрессив эканлигини кўрсатади. Бизнинг олган натижаларимизда: остеосаркома → юқори Ki-67, хондросаркома → ўрта, фибросаркома → паст кўрсаткичлари адабиётлар билан тўлиқ мос келади. CD34 ва микротомир зичлиги маркери бўйича барча ҳолатларда 100% позитивлик аниқланди. Бу саркомаларда микротомир зичлигининг юқори даражада эканлигини кўрсатади.

Weidner N. (1991) тадқиқотларида микротомир зичлиги ва метастазланиш ўртасида кучли боғлиқлик мавжудлиги исботланган. Шунингдек, Bremnes R.M. (2011) ишларида CD34 юқори экспрессияси ўсманинг инвазивлик даражаси билан боғлиқлиги таъкидланган. Бизнинг тадқиқотимизда CD34 100% ҳолатда позитив бўлиши:саркомаларда ангиогенез доим фаол метастаз хавфи юқори деган хулосани беради. Маркерлар комбинацияси ва интеграл баҳолаш **э**нг муҳим натижалардан бири - маркерларнинг комплекс таҳлилидир. Hanahan D., Weinberg R.A. (2011) “Hallmarks of cancer” концепциясида: ангиогенез + пролиферация + микромуҳит → ўсма прогрессиясининг асосий омиллари деб кўрсатилган.

Бизнинг тадқиқотимизда остеосаркоманинг юқори агрессивлиги, хондросаркоманинг ўрта ва фибросаркоманинг паст агрессивлиги VEGF + Ki-67 + CD34 → комплекс прогностик моделни шакллантирди.

Хулосалар:

1. Суяк, тоғай ва юмшоқ тўқима хавфли ўсмаларида VEGF маркери 100% ҳолатларда юқори экспрессия кўрсатиши аниқланиб, бу саркомаларда ангиогенез жараёнининг доимий ва фаол кечишини тасдиқлади. Остеосаркомада микротомир зичлигининг 20-30 гача етиши унинг юқори васкуляризацияси ва агрессив биологик хусусиятларини кўрсатди.

2. Ki-67 индекси бўйича остеосаркомада юқори пролифератив фаоллик (70%) устунлиги аниқланиб, бу ушбу ўсма турининг тез ўсиш ва прогрессияга мойиллигини илмий жиҳатдан тасдиқлади. Хондросаркомада ўрта (50%), фибросаркомада эса паст (40%) даражалар устунлиги уларнинг нисбатан кам агрессивлигини кўрсатди.

3.CD34 маркери орқали барча ҳолатларда (100%) микротомир зичлигининг юқори даражада аниқланиши саркомаларда ангиогенезнинг универсал хусусиятга эга эканлигини ва метастаз потенциалининг юқори эканлигини исботлади.

4. Иммуногистокимёвий маркерлар (VEGF, Ki-67, CD34) кўрсаткичлари билан ўсмаларнинг морфологик хусусиятлари (гиперхром ядролар, патологик митозлар, ангиоматоз тузилмалар) ўртасида тўғридан-тўғри боғлиқлик аниқланди, бу эса ўсма агрессивлигини морфо-биологик жиҳатдан баҳолаш имконини берди.

5. VEGF, Ki-67 ва CD34 маркерларининг комплекс таҳлили асосида саркомаларнинг биологик агрессивлиги ва прогностик баҳоси шакллантирилди: остеосаркома - юқори агрессив, хондросаркома - ўрта, фибросаркома - нисбатан паст даражали ўсмалар сифатида тавсифланди.

6. Иммуногистокимёвий маркерларнинг интеграл баҳоси саркомаларда прогностик модель сифатида қўлланилиши мумкинлиги асосланди ва уларни биргаликда баҳолаш алоҳида маркерларга нисбатан юқори диагностик ва прогностик аҳамиятга эга эканлиги исботланди.

Амалий тавсиялар:

1. Суяк ва юмшоқ тўқима саркомаларини диагностика қилишда иммуногистокимёвий текширувни (VEGF, Ki-67, CD34) стандарт морфологик таҳлилга қўшимча равишда мажбурий тарзда қўллаш тавсия этилади.

2. Ki-67 индекси 20% дан юқори бўлган ҳолатларда (айниқса остеосаркомада) ўсманинг юқори агрессивлиги ҳисобга олиниб, интенсив ва индивидуаллаштирилган даволаш тактикаси танланиши мақсадга мувофиқ.

3.VEGF юқори экспрессияси аниқланган беморларда антиангиоген терапия (таргет терапия)ни қўллаш имконияти клиник жиҳатдан кўриб чиқилиши лозим.

4. CD34 орқали аниқланган юқори микротомир зичлиги мавжуд ҳолларда беморларда метастазланиш хавфи юқори эканлиги инобатга олиниб, динамик кузатув ва мониторинг (КТ, МРТ)ни кучайтириш зарур.

5. Иммуногистокимёвий маркерларни комплекс баҳолаш (VEGF + Ki-67 + CD34) саркомаларда прогностик стратификация қилишда ва клиник қарор қабул қилишда самарали диагностик алгоритм сифатида жорий этилиши тавсия этилади.

6. Олинган натижаларни клиник амалиётга жорий этиш орқали саркомаларни эрта аниқлаш, уларнинг биологик хусусиятларини тўғри баҳолаш ва даволаш самарадорлигини ошириш мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1. Fletcher C.D.M., WHO Classification of Tumours, 2020. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8167394/

2. Judax Folkman. WHO Classification of Tumours, 2022. https://www.pnas.org/doi/10.1073/pnas.0806582105

3. Scholzen T. ва Gerdes J. (2000). The Ki-67 protein: From the known and the unknown. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1002/(SICI)1097-4652(200003)182:3%3C311::AID-JCP1%3E3.0.CO;2-9

4. Hanahan D., Weinberg R.A., 2011. Hallmarks of Cancer: The Next Generation. https://www.cell.com/fulltext/S0092-8674(11)00127-9#:~:text=Supplemental%20Information%20(1)-,Abstract,means%20to%20treat%20human%20cancer.

5. Yoshida A. Ewing and Ewing-like sarcomas: A morphological guide through genetically-defined entities. Pathol Int. 2023 Jan;73(1):12-26.

6. Machado I, Yoshida A, Morales MGN, Abrahão-Machado LF, Navarro S, Cruz J, Lavernia J, Parafioriti A, Picci P, Llombart-Bosch A. Review with novel markers facilitates precise categorization of 41 cases of diagnostically challenging, "undifferentiated small round cell tumors". A clinicopathologic, immunophenotypic and molecular analysis. Ann Diagn Pathol. 2018 Jun;34:1-12.

7. Mamyrbayev A, Dyussembayeva N, Ibrayeva L, Satenova Zh, Tulyayeva A, Kireyeva N, Zholmukhamedova D, Rybalkina D, Yeleuov G, Yeleuov A. Features of Malignancy Prevalence among Children in the Aral Sea Region. Asian Pac J Cancer Prev. 2016 Dec 1;17(12):5217-5221

8. Mamyrbayev A, Djarkenov T, Dosbayev A, Dusembayeva N, Shpakov A, Umarova G, Drobchenko Y, Kunurkulzhayev T, Zhaylybaev M, Isayeva G. The Incidence of Malignant Tumors in Environmentally Disadvantaged Regions of Kazakhstan. Asian Pac J Cancer Prev. 2016 Dec 1;17(12):5203-5209.

9. Худайкулова Ф. Х., Юлдашев Б. С. Колоректальный рак и его морфологические типы у населения, проживающего в неблагоприятной зоне приаралья //Жур-л гуман-х и ест-ных наук.2024. №.17.С. 278-284.

10. Розумбетов К. У. и др. Оценка состояния здоровья населения ПРИАРАЛЬЯ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 444-448.

11. Аскарова Р. Влияние аральского кризиса на здоровье населения в Хорезмской области //in Library. – 2021. – Т. 21. – №. 3. – С. 80-87.

12. Кудайбергенова У. К. Географические, экологические, структурные особенности регионов и связанные с ними болезни населения южного ПРИАРАЛЬЯ //Евразийский Союз Ученых. 2020. №. 12-2 (81). С. 12-13.

13. Михалева Л. М. и др. Морфофункциональная характеристика кровеносных сосудов при доброкачественных и злокачественных гранулезок-леточных опухолях яичников //Морфология. – 2008. Т. 133. №. 2. – С. 89а-89а.

14. Рыбалкина Д. Х., Жанбасинова Н. М., Салимбаева Б. М. Онкологическая заболеваемость детей Приаралья //Bulletin of the Karaganda university Biology. Medicine. Geography series. – 2017. – Т. 85. №. 1. С. 75-79.

UDC: 616.432-007.21:575.113:577.21

BIRLAMCHI “BO‘SH” TURK EGARI SINDROMINING MORFOLOGIK PROGRESSIYALANISHIDA MOLEKULYAR-GENETIK PREDIKTORLAR

Artikova Dilfuza Maxamatovna - t.f.n., dotsent
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda COL1A1 rs1800012 T/T genotipi bilan birlamchi “bo‘sh” turk egari sindromining progressiyalanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik baholandi. Tadqiqotga birlamchi “bo‘sh” turk egari sindromi bo‘lgan 36 nafar bemor hamda nazorat guruhidagi 36 nafar shaxs jalb etildi. Barcha tekshirilganlarda COL1A1 rs1800012 polimorfizmi bo‘yicha molekulyar-genetik tadqiqot o‘tkazildi. Olingan natijalarga ko‘ra, T/T genotipi uchrash chastotasi nazorat guruhidan shakllanayotgan shaklga va undan to‘liq shaklga qarab ortib bordi: 2,8% → 11,8% → 26,3%. Ayniqsa, to‘liq shaklda ushbu genotip bilan sezilarli assotsiatsiya aniqlandi (p=0,01; OR=12,5). Shunday qilib, COL1A1 rs1800012 T/T genotipi birlamchi “bo‘sh” turk egari sindromining to‘liq shakli rivojlanish xavfini baholashda qo‘shimcha molekulyar-genetik marker sifatida qaralishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *birlamchi “bo‘sh” turk egari sindromi, BBTE, COL1A1, rs1800012, T/T genotipi, polimorfizm, molekulyar-genetik marker, morfologik progressiyalanish, turk egari diafragmasi.*

МОЛЕКУЛЯРНО-ГЕНЕТИЧЕСКИЕ ПРЕДИКТОРЫ МОРФОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГРЕССИРОВАНИЯ ПЕРВИЧНОГО СИНДРОМА «ПУСТОГО» ТУРЕЦКОГО СЕДЛА

Артикова Дилфуза Махаматовна – к.м.н., доцент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *В данном исследовании была оценена связь между T/T генотипом COL1A1 rs1800012 и прогрессированием первичного синдрома «пустого» турецкого седла. В исследование были включены 36 пациентов с первичным синдромом «пустого» турецкого седла, а также 36 лиц контрольной группы. Всем обследованным было проведено молекулярно-генетическое исследование полиморфизма COL1A1 rs1800012. Согласно полученным результатам, частота встречаемости T/T генотипа последовательно возрастала от контрольной группы к формирующейся форме и далее к полной форме: 2,8% → 11,8% → 26,3%. Особенно при полной форме была выявлена значимая ассоциация с данным генотипом (p=0,01; OR=12,5). Таким образом, T/T генотип COL1A1 rs1800012 может рассматриваться как дополнительный молекулярно-генетический маркер для оценки риска развития полной формы первичного синдрома «пустого» турецкого седла.*

Ключевые слова: *первичный синдром «пустого» турецкого седла, ППТС, COL1A1, rs1800012, генотип T/T, полиморфизм, молекулярно-генетический маркер, морфологическое прогрессирование, диафрагма турецкого седла.*

MOLECULAR GENETIC PREDICTORS OF MORPHOLOGICAL PROGRESSION OF PRIMARY EMPTY SELLA SYNDROME

Artikova Dilfuza Makhamatovna - C.M.Sc., associate professor
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *In this study, the association between the T/T genotype of COL1A1 rs1800012 and the progression of primary empty sella syndrome was assessed. The study included 36 patients with primary empty sella syndrome and 36 individuals in the control group. All participants underwent molecular genetic testing for the COL1A1 rs1800012 polymorphism. According to the obtained results, the frequency of the T/T genotype increased progressively from the control group to the developing form and then to the complete form: 2.8% → 11.8% → 26.3%. A significant association with this genotype was identified particularly in the complete form (p=0.01; OR=12.5). Thus, the T/T genotype of COL1A1 rs1800012 may be considered an additional molecular genetic marker for assessing the risk of developing the complete form of primary empty sella syndrome.*

Keywords: *primary empty sella syndrome, PESS, COL1A1, rs1800012, T/T genotype, polymorphism, molecular genetic marker, morphological progression, diaphragma sellae.*

Dolzarbligi. Birlamchi “bo‘sh” turk egari sindromi neyroendokrin holatlar qatoriga kiradi. Bunda sellar sohadagi morfologik o‘zgarishlar turli darajadagi klinik ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu MRT manzarasi ko‘pincha tasodifan aniqlanishiga qaramay, ayrim bemorlarda u gipotalamo-gipofizar boshqaruv buzilishlari, bosh og‘rig‘i, nevrologik va ko‘ruv bilan bog‘liq belgilar bilan kechadi. Bu esa mazkur holatni nafaqat radiologik, balki klinik jihatdan ham talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi [2,3].

Morfologik o‘zgarishlarning ifodalanish darajasini baholash muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shakllanayotgan va to‘liq shakllarni ajratib ko‘rsatish birlamchi “bo‘sh” turk egari sindromini statik anatomik holat sifatida emas, balki ehtimoliy morfologik progressiyalanish bilan kechuvchi jarayon sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi [2,3].

Asosiy patogenetik mexanizmlardan biri turk egari diafragmasining funksional yetishmovchiligi hisoblanadi. Turk egari diafragmasi — qattiq miya pardasining biriktiruvchi to‘qimadan iborat tuzilmasi bo‘lib, suprasellyar bo‘shliqni turk egari bo‘shlig‘idan ajratib turadi.

Uning mustahkamligi pasayishi likvor bo‘shlig‘ining turk egari ichiga kirib borishi, gipofizning kompressiyasi va yassilanishi uchun sharoit yaratadi [1].

Diafragmaning mexanik barqarorligi ko‘p jihatdan biriktiruvchi to‘qima matriksining holatiga bog‘liq bo‘lganligi sababli, kollagen karkas sifatiga ta’sir qiluvchi molekulyar omillarni o‘rganish alohida qiziqish uyg‘otadi. COL1A1 geni I tip kollagenning α1-zanjirini kodlaydi, Sp1 bilan bog‘lanish sohasida joylashgan rs1800012 polimorfizmi esa gen ekspressiyasining boshqarilishiga hamda kollagen saqlovchi tuzilmalarning mustahkamlik xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Mazkur polimorfizmning funksional ahamiyati bir qator tadqiqotlarda tasdiqlangan bo‘lib, ularda COL1A1 rs1800012 polimorfizmi suyak to‘qimasining mineral zichligi va sifatining o‘zgarishi, osteoporotik sinishlar xavfi, shuningdek, tayanch-harakat tizimining yumshoq to‘qima tuzilmalari shikastlanishlari bilan bog‘liq ekani ko‘rsatilgan [4,5,6].

Shu bilan birga, COL1A1 rs1800012 polimorfizmining birlamchi “bo‘sh” turk egari sindromidagi roli yetarli darajada o‘rganilmagan. Ayniqsa, uning turk egari diafragmasi yetishmovchiligi hamda shakllanayotgan shakldan to‘liq shaklga o‘tish jarayoni bilan ehtimoliy bog‘liqligi alohida ilmiy ahamiyatga ega [4,5,6]. Shu sababli COL1A1 rs1800012 T/T genotipini o‘rganish dolzarb hisoblanadi va ushbu sindromning morfologik progressiyalanishida molekulyar-genetik mexanizmlar haqidagi tasavvurlarni kengaytirishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi — COL1A1 geni rs1800012 polimorfizmining T/T genotipi bilan birlamchi “bo‘sh” turk egari sindromining shakllanayotgan shakldan to‘liq shaklga progressiyalanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish.

Materiallar va tadqiqot usullari.

Materiallar 2015–2025-yillarda Toshkent davlat tibbiyot universiteti ko‘p tarmoqli klinikasining konsultativ poliklinikasida yig‘ildi. Tadqiqotga MRT orqali tasdiqlangan birlamchi “bo‘sh” turk egari sindromi bo‘lgan 140 bemor kiritildi. Ular orasida erkaklar 26

nafar, ayollar esa 114 nafarni tashkil etdi. Umumiy guruhda bemorlarning o‘rtacha yoshi 42,1±1,02 yil bo‘ldi; erkaklarda bu ko‘rsatkich 38,8±2,5 yil, ayollarda esa 42,9±1,1 yilni tashkil etdi.

Birlamchi “bo‘sh” turk egari sindromi bo‘lgan bemorlarning umumiy klinik kohortasidan molekulyar-genetik bosqich uchun alohida kichik guruh shakllantirildi. Ushbu guruhga birlamchi BTES bo‘lgan 36 nafar bemor kiritildi. Bu katta klinik kohorta doirasida o‘tkazilgan chuqurlashtirilgan pilot molekulyar-genetik bosqich hisoblanadi. Ulardan 19 nafari — birlamchi “bo‘sh” turk egari sindromining (BBTES) to‘liq shakli bilan bo‘lib, MRT ma’lumotlariga ko‘ra gipofiz balandligi ≤2 mm ni tashkil etdi; 17 nafari esa shakllanayotgan shakl bilan bo‘lib, ularda gipofiz balandligi >2 mm edi. Nazorat guruhini “bo‘sh” turk egari sindromi belgilarisiz bo‘lgan 36 nafar amaliy sog‘lom shaxs tashkil etdi.

Kiritish mezoni neyrovizualizatsiya usuli bilan tasdiqlangan birlamchi “bo‘sh” turk egari sindromining mavjudligi hisoblandi. Gipofizar soha o‘smalari bo‘yicha jarrohlik, nur yoki dori vositalari bilan davolangan bemorlar tadqiqotdan chiqarildi, chunki bunday holatlar ikkilamchi BTESga kiradi.

Barcha tekshirilgan shaxslarda COL1A1 geni rs1800012 polimorfizmi bo‘yicha molekulyar-genetik tadqiqot o‘tkazildi, bunda G/T allellari va G/G, G/T, T/T genotiplari aniqlandi. Tadqiqot Viamed molekulyar-genetik laboratoriyasida bajarildi.DNK vena qonidan olingan leykotsitlardan “NK-Magnit Base-96” to‘plami yordamida ajratib olindi. Genotiplash “DT lite 5S1” amplifikatorida “Litekh” test-tizimlaridan foydalangan holda PZR usuli va keyingi restriksion tahlil orqali amalga oshirildi; praymerlarning annealing harorati 65°C ni tashkil etdi.

Statistik tahlil allel va genotiplar chastotasini hisoblash, Pirsonning χ^2 mezoni, imkoniyatlar nisbati (OR), nisbiy xavf (RR) hamda 95% ishonch intervallarini aniqlashni o‘z ichiga oldi. Farqlar $p \leq 0,05$ bo‘lganda statistik jihatdan ahamiyatli deb qabul qilindi. Ehtimoliy genetik-morfologik gradientni baholash maqsadida taqqoslash nazorat guruhi, BBTESning shakllanayotgan va to‘liq shakllari o‘rtasida o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalari.


COL1A1 geni rs1800012 polimorfizmi allellari va genotiplarining chastotaviy taqsimotini tahlil qilish tekshirilgan guruhlarda genetik variantlarning bir xil darajada uchramasligini ko‘rsatdi. Nazorat guruhida G alleli ustunlik qildi, uning chastotasi 81,94% ni tashkil etdi. Birlamchi “bo‘sh” turk egari sindromi bo‘lgan bemorlarda esa ushbu ko‘rsatkich pastroq bo‘lib, 63,89% ga teng bo‘ldi.

Shu bilan birga, PBBTES bilan og‘rigan bemorlarda T alleli ulushining ortishi qayd etildi: uning asosiy guruhdagi chastotasi 36,11% ni tashkil qilib, nazorat guruhidagi mos ko‘rsatkichdan — 18,06% — deyarli ikki baravar yuqori bo‘ldi (1-jadval, 1-rasm).

1-jadval

Birlamchi BTES bo‘lgan bemorlar va nazorat guruhida COL1A1 geni rs1800012 polimorfizmi allellari va genotiplarining taqsimlanish chastotasi

Guruhlar	Allellar va genotiplar chastotasi									
	G		T		G/G		G/T		T/T	
	n	%	n	%	n	%	n	%	n	%
I guruh — asosiy guruh (AG) (n=36)	46	63,89	26	36,11	17	47,22	12	33,33	7	19,44
II guruh — to‘liq shakl (n=19)	22	57,89	16	42,11	8	42,11	6	31,58	5	26,32
III guruh — shakllanayotgan shakl (n=17)	24	70,59	10	29,41	9	52,94	6	35,29	2	11,76
IV guruh — nazorat guruhi (NG), sog‘lom shaxslar (n=36)	59	81,94	13	18,06	24	66,67	11	30,56	1	2,78



1-rasm COL1A1 geni rs1800012 polimorfizmi bo‘yicha allellar taqsimoti

Klinik-morfologik shaklni hisobga olgan holda yanada batafsil tahlil o‘tkazilganda, morfologik o‘zgarishlar og‘irlashib borishi bilan T alleli chastotasining ortishi aniqlandi. Jumladan, nazorat guruhida ushbu allel 18,06% hollarda aniqlangan bo‘lsa, PBBTESning shakllanayotgan shaklida — 29,41%, to‘liq shaklida esa — 42,11% ni tashkil etdi. Bunday ketma-ketlik allel profilida quyidagi yo‘nalishda o‘zgarish mavjudligini ko‘rsatadi: nazorat guruhi → shakllanayotgan shakl → BBTESning to‘liq shakli.

Genotipik taqsimotni baholashda ham shunga o‘xshash tendensiya kuzatildi. T/T genotipi nazorat guruhida eng kam uchrab, 2,78% ni tashkil etdi. PBBTESning shakllanayotgan shakli bo‘lgan bemorlarda uning ulushi 11,76% gacha oshgan bo‘lsa, to‘liq shaklda 26,32% ga yetdi.

Shunday qilib, T/T gomozigot varianti aynan kasallikning to‘liq shakli bo‘lgan bemorlar uchun eng xos genotip sifatida namoyon bo‘ldi. Bu holat uning sellar sohadagi yanada yaqqol strukturaviy qayta tuzilishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

G/G genotipi bo‘yicha esa teskari qonuniyat aniqlandi. Uning chastotasi nazorat guruhida eng yuqori bo‘lib, 66,67% ni tashkil etdi; shakllanayotgan shaklda 52,94% gacha kamaydi va PBBTESning to‘liq shaklida eng past ko‘rsatkichga — 42,11% ga yetdi.

T alleli va T/T genotipi chastotasining bosqichma-bosqich ortib borishi fonida G/G genotipi ulushining kamayishi G alleli nisbatan qulay genetik profil bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini taxmin qilishga asos beradi. Aksincha, T alleli, ayniqsa gomozigot holatda, PBBTESning morfologik progressiyalanish ehtimoli yuqoriligi bilan assotsiatsiyalanishi mumkin.


Shunday qilib, 1-jadval ma’lumotlari nafaqat bemorlar va nazorat guruhi o‘rtasidagi farqlarni, balki muayyan genetik-morfologik ketma-ketlik mavjudligini ham ko‘rsatadi. Nazorat guruhidan shakllanayotgan shaklga, undan esa PBBTESning to‘liq shakliga qarab T alleli va T/T genotipi chastotasining ortib borishi COL1A1 rs1800012 polimorfizmini birlamchi “bo‘sh” turk egari sindromi progressiyalanishining molekulyar-genetik modeli tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida BBTESning to‘liq shakli bo‘lgan bemorlar nazorat guruhi bilan solishtirildi (2-jadval, 2-rasm).

2-jadval

BBTESning to‘liq shakli bo‘lgan bemorlar va nazorat guruhida COL1A1 geni rs1800012 polimorfizmining allel va genotipik variantlarini qiyosiy tahlil qilish

Allellar va genotiplar	Chastota				χ^2	R	RR	95%CI	OR	95% CI
	To‘liq shakl (n=19)		NG(n=36)							
	n	%	n	%						
G	22	57,9	59	81,9	7,4	0,01	0,7	0,27 - 1,83	0,3	0,13 - 0,72
T	16	42,1	13	18,1	7,4	0,01	1,4	0,62 - 3,26	3,3	1,4 - 7,8
G/G	8	42,1	24	66,7	3,1	0,19	0,6	0,15 - 2,67	0,4	0,12 - 1,12
G/T	6	31,6	11	30,6	0,0	0,93	1,0	0,22 - 4,77	1,0	0,32 - 3,48
T/T	5	26,3	1	2,8	7,1	0,01	9,5	3,1 - 28,91	12,5	1,95 - 80,24



2-rasm. COL1A1 geni rs1800012 polimorfizmining allel va genotipik variantlarini qiyosiy tahlii

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, COL1A1 geni rs1800012 polimorfizmi bo‘yicha eng yaqqol farqlar T alleli va T/T genotipi chastotasining ortishi bilan bog‘liq bo‘ldi. T alleli PBBTESning to‘liq shakli bo‘lgan bemorlarda 42,1% hollarda aniqlangan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 18,1% ni tashkil etdi. Farqlar statistik jihatdan ahamiyatli bo‘ldi: χ^2=7,4; p=0,01; OR=3,3; 95% II: 1,4–7,8.

Aksincha, G alleli nazorat guruhida ko‘proq uchradi — 81,9%, PBBTESning to‘liq shaklida esa 57,9% ni tashkil etdi. Bu holat ham statistik jihatdan ahamiyatli farqlar bilan kechdi: χ^2=7,4; p=0,01; OR=0,3; 95% II: 0,13–0,72.

Alohida ahamiyatga T/T genotipi ega bo‘ldi. Uning chastotasi PBBTESning to‘liq shaklida 26,3% ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida atigi 2,8% bo‘ldi. Bunda farqlar statistik jihatdan ahamiyatli darajaga yetdi (χ^2=7,1; p=0,01), RR=9,5 va OR=12,5 ko‘rsatkichlari esa ushbu genotipning kasallikning to‘liq shakli bilan eng kuchli assotsiatsiyaga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Shunday qilib, faqat T allelining mavjudligi emas, balki aynan T/T genotipi BBTESning noqulay morfologik varianti uchun yanada muhim molekulyar-genetik ko‘rsatkich sifatida qaralishi mumkin.

2-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, BBTESning to‘liq shakli COL1A1 rs1800012 polimorfizmining noqulay variantlari eng yaqqol to‘planishi bilan tavsiflanadi. Bunda assotsiatsiya kuchi allel darajasidan genotipik darajaga qarab ortib boradi: T alleli to‘liq shakl ehtimolining mo‘tadil oshishi bilan bog‘liq bo‘lsa, T/T gomozigot holati imkoniyatlar nisbati ko‘rsatkichining ancha yuqori bo‘lishini namoyon etadi.

Bu esa genetik ta’sirning dozaga bog‘liq xususiyatga ega bo‘lishi mumkinligini taxmin qilishga asos beradi. Ya’ni T allelining ikki nusxasi mavjudligi sellar sohada yanada yaqqol morfologik qayta tuzilishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.


Keyingi bosqichda ikkala morfologik guruh o‘zaro taqqoslandi (3-jadval).

3-jadval

BBTESning shakllanayotgan shakli va nazorat guruhini qiyosiy tahlil qilish

Allellar va genotiplar	Chastota				χ^2	R	RR	95%CI	OR	95% CI
	shakllanayotgan shakl (n=17)		Nazorat gurux (n=36)							
	n	%	n	%						
G	24	70,6	59	81,9	1,8	0,26	0,9	G	24	70,6
T	10	29,4	13	18,1	1,8	0,26	1,2	T	10	29,4
G/G	9	52,9	24	66,7	0,9	0,55	0,8	G/G	9	52,9
G/T	6	35,3	11	30,6	0,1	0,84	1,2	G/T	6	35,3
T/T	2	11,8	1	2,8	1,7	0,26	4,2	T/T	2	11,8

Birlamchi “bo‘sh” turk egari sindromining shakllanayotgan shakli bo‘lgan bemorlar tahlil qilinganda, nazorat guruhi bilan solishtirganda COL1A1 geni rs1800012 polimorfizmi allellari va genotiplarining taqsimlanishida kamroq ifodalangan, biroq yo‘nalishi jihatidan o‘xshash o‘zgarishlar aniqlandi. Ushbu kichik guruh alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki shakllanayotgan shakl sellar sohaning morfologik qayta tuzilishidagi boshlang‘ich bosqichni aks ettirishi mumkin. Bu davrda genetik farqlar hali kasallikning to‘liq shaklida kuzatiladigan darajada yaqqol namoyon bo‘lmaydi.



3-rasm. COL1A1 geni rs1800012 polimorfizmining shakllanayotgan shakli va nazorat guruhini qiyosiy tahlil i

BBTESning shakllanayotgan shakli bo‘lgan bemorlarda T alleli chastotasi 29,4% ni tashkil etdi, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 18,1% ga teng bo‘ldi. Farqlar statistik jihatdan ahamiyatli darajaga yetmagan bo‘lsa-da (χ^2=1,8; p=0,26), o‘zgarishlar yo‘nalishi BBTESning to‘liq shakli bo‘lgan bemorlarda olingan ma’lumotlar bilan mos keldi. Bu esa T alleli ulushining ortishini genetik profilning noqulay variant tomonga siljishining ehtimoliy erta belgisi sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Genotipik taqsimot ham shakllanayotgan shaklning oraliq xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. G/G genotipi chastotasi 52,9% ni tashkil etdi, bu nazorat guruhidagi ko‘rsatkichdan (66,7%) past, biroq BBTESning to‘liq shaklidagidan yuqori bo‘ldi. G/T genotipi esa ikkala guruhda bir-biriga yaqin chastotada uchradi: shakllanayotgan shaklda 35,3%, nazorat guruhida esa 30,6%.

Ushbu ma’lumotlar G/T geterozigot varianti, ehtimol, kasallikning erta bosqichida yetakchi xavf omili emasligini ko‘rsatadi.


Eng ko‘rsatkichli natija T/T genotipi bo‘yicha aniqlandi. Uning chastotasi shakllanayotgan shaklda 11,8% ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida 2,8% ga teng bo‘ldi. Farqlar statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lmasada (χ^2=1,7; p=0,26), OR=4,2 atrofidagi imkoniyatlar nisbati ushbu genotip tashuvchilarida BBTES shakllanish ehtimoli oshishiga moyillik mavjudligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, BBTESning shakllanayotgan shakli nazorat guruhidan ishonchli farqlanishi bilan emas, balki genetik variantlar taqsimotidagi boshlang‘ich yo‘naltirilgan siljish bilan tavsiflanadi. T alleli va T/T genotipi chastotasining ortishi, shu bilan birga G/G genotipi ulushining kamayishi ushbu shaklni nazorat guruhi va kasallikning to‘liq shakli o‘rtasidagi oraliq bo‘g‘in sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Xulosa. 1–3-jadvallar bo‘yicha umumlashtirilgan tahlil COL1A1 rs1800012 variantlari taqsimotining quyidagi ketma-ketlikda izchil o‘zgarishini ko‘rsatdi (1-rasm): nazorat guruhi → BBTESning shakllanayotgan shakli → PBBTESning to‘liq shakli. T alleli chastotasi mos ravishda 18,1% dan 29,4% va 42,1% gacha, T/T genotipi chastotasi esa 2,8% dan 11,8% va 26,3% gacha oshib bordi. Shu bilan bir vaqtda G/G genotipi chastotasi kamaydi: 66,7% → 52,9% → 42,1%.

Bunday dinamika genetik-morfologik gradient mavjudligini taxmin qilishga asos beradi. Ushbu gradient doirasida T/T genotipi sellar sohadagi yanada yaqqol strukturaviy o‘zgarishlar bilan assotsiatsiyalanadi. Eng ahamiyatli bog‘liqlik BBTESning to‘liq shaklida aniqlandi: OR=12,5, bu mazkur genotip tashuvchilarida kasallikning to‘liq shakli rivojlanish ehtimoli yuqoriligini ko‘rsatadi.

Klinik nuqtayi nazardan T/T genotipi mustaqil diagnostik mezon hisoblanmaydi. Biroq u MRT, klinik va gormonal ma’lumotlarni hisobga olgan holda tuziladigan kompleks prognostik model tarkibida BBTESning to‘liq shakli xavfini baholash uchun qo‘shimcha molekulyar-genetik marker sifatida qo‘llanilishi mumkin.



1-rasm. BBTES morfologik progressiyalanishining genotipik gradienti

Xulosalar:

1. BBTES bo‘lgan bemorlarda COL1A1 rs1800012 polimorfizmining T alleli va T/T genotipi chastotasi oshgani aniqlandi. Bu ularning kasallik shakllanishi bilan ehtimoliy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

2. Eng yaqqol assotsiatsiya BBTESning to‘liq shaklida qayd etildi: T/T genotipi bemorlarning 26,3% ida, nazorat guruhida esa 2,8% ida aniqlandi (p=0,01; OR=12,5; RR=9,5).

3. BBTESning shakllanayotgan shaklida ham T/T genotipi chastotasi nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘ldi (11,8% ga nisbatan 2,8%), biroq farqlar statistik jihatdan ahamiyatli darajaga yetmadi.

4. T/T genotipi chastotasining nazorat guruhi → shakllanayotgan shakl → to‘liq shakl

qatorida izchil ortib borishi ushbu genotipni BBTES morfologik progressiyalanishining qo‘shimcha xavf markeri sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Cabuk B., Anik I., Kokturk S., Ceylan S. Anatomic and histologic features of diaphragma sellae that affect the suprasellar extension of intrasellar tumours. *Journal of Clinical Neuroscience.* 2020;71:234–244.

2. Guitelman M., Garcia Basavilbaso N., Vitale M., Chervin A., Katz D., Miragaya K. et al. Primary empty sella (PES): a review of 175 cases. *Pituitary.* 2013;16(2):270–274.

3. Lundholm M.D., Yogi-Morren D. A Comprehensive Review of Empty Sella and Empty Sella Syndrome. *Endocrine Practice.* 2024;30(5):497–502.

4. Mann V., Hobson E.E., Li B., Stewart T.L., Grant S.F.A., Robins S.P., Aspden R.M., Ralston S.H. A COL1A1 Sp1 binding site polymorphism predisposes to osteoporotic fracture by affecting bone density and quality. *The Journal of Clinical Investigation.* 2001; 107(7): 899–907.

5. Mann V., Ralston S.H. Meta-analysis of COL1A1 Sp1 polymorphism in relation to bone mineral density and osteoporotic fracture. *Bone.* 2003; 32(6):711–717.

6. Zhong B., Huang Y., Qian J., Zhong Y., Liu Y., Yao J. et al. Association of COL1A1 rs1800012 polymorphism with musculoskeletal soft tissue injuries: a meta-analysis. *Oncotarget.* 2017; 8(27):45643–45652.

УДК: 616.12-007.21:159.923-053.2

БОЛАЛАРДА ТУҒМА ЮРАК НУҚСОНЛАРИНИНГ ОҒИРЛИК ДАРАЖАСИ ХУСУСИЯТЛАРИ

Таирова Сакина Баходировна – Ph.D., ассистент
Самарқанд давлат тиббиёт университети (Самарқанд, Ўзбекистон)
Мавлянова Умида Нематовна – ассистент
Комилов Камрон Камолович – талаба
Абдурахманов Бунёд Давлатович – талаба
Шамсиева Райхона Мирилхомовна – талаба
Самарқанд Зармед университети (Самарқанд, Ўзбекистон)

Изоҳ. *Туғма юрак нуқсонлари (ТЮН) болаларда юқори даражада тарқалиши ва жиддий соғлиқ муаммолари ҳамда боланинг ногиронлиги туфайли эрта жарроҳлик тузатиш зарурати сабабли педиатрияда муҳим муаммо ҳисобланади. Бутун дунёда туғма юрак нуқсонлари бўлган болаларда неврологик ўзгаришларни ташхислаш усулларини такомиллаштиришга, шунингдек касаллик ва унинг асоратларини олдини олишнинг самарали усулларини ишлаб чиқишга қаратилган илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Туғма юрак нуқсонлари бўлган болаларда марказий асаб тизимидаги (МАТ) ўзгаришларнинг клиник жиҳатларини таҳлил қилиш ва ушбу гуруҳ болаларида эрта ташхис қўйиш усулларини оптималлаштириш замонавий тиббиётнинг устувор йўналишларидан бири бўлиб қолмоқда.*

Калит сўзлар: *туғма юрак нуқсонлари, ёш болалар, туғма юрак нуқсонларининг оғирлиги*

ОСОБЕННОСТИ ТЯЖЕСТИ ВРОЖДЕННЫХ ПОРОКОВ СЕРДЦА У ДЕТЕЙ

Таирова Сакина Баходировна – Ph.D., ассистент
Самаркандский Государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)
Мавлянова Умида Нематовна – ассистент
Комилов Камрон Камолович – студент
Абдурахманов Бунёд Давлатович – студент
Шамсиева Райхона Мирилхомовна – студент
Самаркандский университет Зармед (Самарканд, Узбекистан)

Аннотация. *Врожденные пороки сердца (ВПС) являются серьезной проблемой в педиатрии, вследствие высокой распространенности и необходимости ранней хирургической коррекции из-за серьезных нарушений здоровья и инвалидности ребенка. Во всем мире проводятся научные исследования, направленные на совершенствование диагностики неврологических нарушений у детей с врожденными пороками сердца и одновременно на разработку эффективных методов профилактики заболевания и его осложнений. Анализ клинических аспектов изменений центральной нервной системы (ЦНС) у детей с врожденными пороками сердца и оптимизации методов ранней диагностики в данной группе детей остается приоритетным направлением современной медицины.*

Ключевые слова: *врожденные пороки сердца, дети раннего возраста, тяжесть ВПС*

SEVERITY CHARACTERISTICS OF CONGENITAL HEART DEFECTS IN CHILDREN

Tairova Sakina Bakhodirovna – Ph.D., assistant
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)
Mavlyanova Umida Nematovna – assistant
Komilov Kamron Kamolovich – student
Abdurakhmanov Bunyod Davlatovich – student
Shamsiyeva Raykhona Mirilkhomovna – student
Samarkand University Zarmed (Samarkand, Uzbekistan)

Abstract. *Congenital heart defects (CHD) are a serious problem in pediatrics due to their high prevalence and the need for early surgical correction due to serious health problems and disabilities of the child. Scientific research is being conducted worldwide to improve the diagnostics of neurological disorders in children with congenital heart defects and, at the same time, to develop effective methods for preventing the disease and its complications. Analysis of clinical aspects of changes in the central nervous system (CNS) in children with congenital heart defects and optimization of early diagnostic methods in this group of children remains a priority area of modern medicine.*

Key words: *congenital heart defects, young children, severity of congenital heart disease.*

Долзарблиги. Туғма юрак нуқсонлари (ТЮН) болаларда туғма патологиялар тузилишида етакчи ўринни эгаллайди ва гўдаклар ҳамда эрта болалик даврида касалланиш ва ўлимнинг асосий сабабларидан бири ҳисобланади [6,10,11]. Сўнгги ўн йилликларда кардиожарроҳлик ва интенсив терапия ривожланиши туфайли ТЮН билан оғриган болаларнинг яшаб қолиш даражаси сезиларли ошди, бу эса сурункали кечувчи беморлар сони ортишига ҳамда нуқсон оғирлик даражасининг турлича бўлишига олиб келди [1,5,7,17].

Замонавий тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ТЮН оғирлиги фақат анатомик нуқсон билан эмас, балки гемодинамик бузилишлар даражаси, гипоксемиянинг ифодаланганлиги ва нуқсоннинг тизимли ҳамда церебрал перфузияга таъсири билан ҳам белгиланади [2,14,20]. Айниқса, цианотик шаклдаги ТЮН нохуш ҳисобланиб, улар сурункали гипоксия билан кечади ва бу ҳолат органлар ҳамда тизимлар, шу жумладан марказий асаб тизими ривожланишига салбий таъсир кўрсатади [3,4,15,18].

Аниқланганки, бола ёши ошган сари ва ўз вақтида жарроҳлик коррекцияси амалга оширилмаса, гемодинамик юклама кучайиб боради ҳамда клиник ҳолат ёмонлашади, бу эса ўрта оғир ва оғир шаклдаги ТЮН улушининг ортиши билан намоён бўлади [9]. Бу ҳолат юрак етишмовчилигининг прогрессияси, ўпка гипертензияси ривожланиши ва узоқ муддатли гипоксемия таъсири билан боғлиқ [12,13,16,19].

Туғма юрак нуқсонларига бағишланган кўплаб тадқиқотларга қарамасдан, ТЮН оғирлигининг ёшга боғлиқ динамикаси ва унинг клиник оқибатлари, айниқса эрта ёшдаги болалар популяциясида, етарлича ўрганилмаган [8]. Бу эса ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ТЮН тузилиши ва оғирлик даражасини янада чуқур ўрганиш заруратини келтириб чиқаради, бу эса диагностика, жарроҳлик аралашуви муддатлари ва касаллик прогнозини оптималлаштиришда муҳим аҳамиятга эга.

Тадқиқот материали ва усуллари. Тадқиқот Самарқанд давлат тиббиёт университетининг болалар кўп тармоқли клиникаси ҳамда Самарқанд вилояти тиббиёт муассасалари базасида ўтказилди. 12 ойдан 71 ойгача (1 ёшдан 5 ёшгача) бўлган эрта ёшдаги болалар текширилди. Асосий гуруҳга туғма юрак нуқсонлари (ТЮН) бўлган 226 нафар бола киритилди. Улар ёшга қараб уч гуруҳга ажратилди, ўртача ёши 2,8±1,1 йилни ташкил этди.

Назорат гуруҳлари клиник жиҳатдан соғлом, ёши ва жинсига мос болалардан шакллантирилди. Жами назорат гуруҳи 97 нафар боладан иборат бўлди. Назорат гуруҳларини шакллантириш асосий гуруҳ билан ёш интервалларини бўйича мослик принципига (12-23 ой, 24-35 ой, 36-72 ой) асосланган бўлиб, бу когнитив, эмоционал-ҳулқий ва неврологик ҳолатни қиёсий баҳолашнинг тўғрилигини таъминлади.

Комплекс текширув педиатр-кардиолог, кардиожарроҳ ва невролог иштирокида ўтказилди ва соматик ҳамда неврологик статусни баҳолаш, шунингдек анамнестик маълумотларни (перинатал давр, ривожланиш хусусиятлари, ҳамроҳ патологиялар) йиғишни ўз ичига олди. Марказий асаб ва юрак-қон томир тизими ҳолатини баҳолаш усуллари қўлланилди: эхокардиография (ЭхоКГ), пульсоксиметрия (SpO_2). Ушбу усуллар миянинг функционал ва структур ҳолати ҳамда гемодинамикани баҳолаш имконини берди. Қоннинг умумий ва биокимёвий таҳлиллари ўтказилди.

Статистик қайта ишлаш IBM SPSS Statistics дастури ёрдамида параметрик ва но-параметрик усуллар орқали амалга оширилди. Фарқлар Стъюдент t-мезони, χ^2 мезони, Манн–Уитни U-мезони ва бошқа усуллар билан баҳоланди, ишончлилик даражаси $p<0,05$ деб қабул қилинди.

Тадқиқот натижалари. Туғма юрак нуқсонларининг шакли ва оғирлик даражаси бўйича тақсимланишини таҳлил қилиш шуни кўрсатдики, текширилган беморлар таркибида ацианотик шакллар устунлик қилди (69,0%), бироқ сезиларли улушни сурункали гипоксемия билан кечувчи цианотик нуқсонлар ҳам ташкил этди (31,0%).

Оғирлик даражасини баҳолашда ўрта оғир ва оғир шаклдаги ТЮН асосий қисмни ташкил этди (мос равишда 37,2% ва 32,7%), бу эса текширилаётган гуруҳда клиник юкламанинг юқори эканлигини кўрсатади. Ёш гуруҳлари бўйича қиёсий таҳлил беморлар ёши ортиши билан цианотик ва оғир шаклдаги ТЮН улуши ишончли равишда ошганини кўрсатди ($p<0,05$), бу эса гипоксиянинг тўпланиб борувчи таъсири ҳамда катта ёшдаги болаларда жарроҳлик коррекциясининг кечиктирилганлигини англатади.

Туғма юрак нуқсонлари бўлган болаларнинг шакли ва оғирлик даражаси бўйича тақсимланишини таҳлил қилиш (1-жадвал) шуни кўрсатдики, асосий гуруҳ тузилишида ацианотик шаклдаги ТЮН устунлик қилди ва улар 69,0% (156 бола) ни ташкил этди, цианотик шакллар улуши эса 31,0% (70 бола) га етди, бу эса сурункали гипоксемия билан кечувчи нуқсонларнинг сезиларли тарқалганлигини кўрсатади.

1-жадвал

Туғма юрак нуқсонлари (асосий гуруҳ) бўлган болаларнинг шакли ва оғирлик даражаси бўйича тақсимланиши

Кўрсаткич	I гуруҳ (n=93)	II гуруҳ (n=75)	III гуруҳ (n=58)	Умумий АГ (n=226)
ТЮН шакли				
Ацианотик шакллар	72 (77,4%)	52 (69,3%)	32 (55,2%)	156 (69,0%)
Цианотик шакллар	21 (22,6%)	23 (30,7%)	26 (44,8%)	70 (31,0%)
ТЮН оғирлик даражаси				
Енгил	32 (34,4%)	23 (30,7%)	13 (22,4%)	68 (30,1%)
Ўрта	37 (39,8%)	28 (37,3%)	19 (32,8%)	84 (37,2%)
Оғир	24 (25,8%)	24 (32,0%)	26 (44,8%)	74 (32,7%)

Ёш гуруҳлари бўйича қиёсий таҳлилда цианотик шакллар частотасининг ёш ортиши билан аниқ ўсиш тенденцияси аниқланди. Шунингдек, 12–23 ойлик болалар гуруҳида уларнинг улуши 22,6% ни ташкил этган бўлса, II гуруҳда (24–35 ой) – 30,7%, катта ёш гуруҳида (36–72 ой) эса 44,8% га етган. Шунга мос равишда, ацианотик шакллар улуши беморлар ёши ортиши билан камайиб борган. Келтирилган фарқлар катта ёшдаги болаларда оғирроқ шаклдаги ТЮН тўпланиб боришини кўрсатади.

Шунга ўхшаш қонуният туғма юрак нуқсонларининг оғирлик даражасини баҳолашда ҳам аниқланди. Енгил шакллар кўпроқ кичик ёш гуруҳидаги болаларда учраган (34,4%) ва катта ёшда камроқ кузатилган (22,4%). Шу билан бирга, оғир шакллар улуши 1–2 ёш гуруҳида 25,8% дан 3–5 ёшда 44,8% гача ошган. Ўрта оғирликдаги ТЮН частотаси нисбатан барқарор бўлган бўлса-да, катта ёш гуруҳида у ҳам пасайиш тенденциясини кўрсатган.

Хулоса. Олинган маълумотлар шуни кўрсатадики, беморлар ёши ортиши билан гемодинамик жиҳатдан аҳамиятли ва оғир шаклдаги туғма юрак нуқсонлари улуши ортиб боради, бу эса эҳтимолан кечроқ ташхис қўйилиши ва жарроҳлик коррекциясининг кечиктирилиши билан боғлиқдир. Нуқсоннинг узоқ давом этиши сурункали гипоксемия ва юрак-қон томир тизими юкламаси билан кечади, бу эса неврологик ва когнитив бузилишлар шаклланиши учун шароит яратади.

Адабиётлар

1. Сакина Баходировна Таирова, Жавохир Илхомжон Угли Шермахматов, Мохинур Шухрат Кизи Аъзамова, Шахзод Бахриддинович Аслиддинов Изменения гематологических показателей и иммунного фона у детей с врожденным пороком сердца // Science and Education. 2025. №2.

2. Скворцов В. В., Тумаренко А. В., Байманкулов С. С. Врожденные пороки сердца //Медицинская сестра. – 2017. – №. 7. – С. 14-17.

3. Таирова С. Б., Буронов М. И. У. Эпидемиология и факторы риска развития врождённых пороков сердца у детей (литературный обзор) //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 536-542.

4. Таирова С. Б., Мухамадиева Л. А. Диагностика врожденных септальных пороков сердца у детей с коморбидной патологией (литературный обзор) //журнал биомедицины и практики. – 2022. – Т. 7. – №. 2.

5. Таирова С. Б., Мухторов А. А. У., Зиёдуллаева М. С. Нейрокогнитивные расстройства у детей с врождёнными пороками сердца (литературный обзор) //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 543-548.

6. Таирова С. Б., Хушвактова Б. Б. Қ. Особенности течения коморбидной патологии с врожденными септальными пороками сердца (литературный обзор) //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 549-555.

7. Таирова С. Б. Allergic reactions on the background of congenital heart defects in young children //Журнал кардиореспираторных исследований. – 2023. – Т. 4. – №. 1.

8. Bahodirovna, T. S. "Atamuradovna ML Иммунологические аспекты у детей раннего возраста с врожденными пороками сердца." Journal of biomedicine and practice 8.4 (2023).

9. Gravholt CH, Viuff MH, Brun S, Stochholm K, Andersen NH. Turner syndrome: mechanisms and management. Nat Rev Endocrinol. (2019) 15:601–14.

10. Pawlikowski M, Kunert-Radek J, Radek M. Plurihormonality of pituitary adenomas in light of immunohistochemical studies. Endokrynol Pol. 2021;61(1):63–66.

11. Robinson GA, Peng J, Donnes P, Coelewij L, Naja M, Radziszewska A, et al.. Disease-associated and patient-specific immune cell signatures in juvenile-onset systemic lupus erythematosus: patient stratification using a machine-learning approach. Lancet Rheumatol. (2020) 2:485–96.

12. Scarpina F, Tagini S. The Stroop Color and Word Test. Front Psychol. 2017; 8:557.

13. Tairova S. B. et al. Tug ‘ma yurak nuqsoni bo ‘lgan bolalarda gematologik ko ‘rsatkichlar va immun fondagi o ‘zgarishlar //Science and Education. – 2025. – T. 6. – №. 2. – C. 102-107.

14. Tairova S. B. et al. Changes in hematological parameters and immune background in children with congenital heart defects //Science and Education. – 2025. – T. 6. – №. 2. – C. 43-48.

15. Tairova S. B. et al. Changes in hormonal and immune background in children with congenital heart disease //Science and Education. – 2025. – T. 6. – №. 2. – C. 49-53.

16. Tairova S. B. et al. Features of the course of comorbid pathology with congenital septal heart defects //Science and Education. – 2025. – T. 6. – №. 2. – C. 61-67.

17. Tairova S. B., Sattarova R. T., Husanova M. B. Q. Incidence of allergic diseases in children with congenital heart defects //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 10. – C. 17-21.

18. Tairova S. B. et al. Ways to correct comorbid states during surgical interventions in children with congenital heart disease //Science and Education. – 2025. – T. 6. – №. 2. – C. 114-119.

19. Turaeva N. et al. The use of cholecalciferol in the treatment of bronchial asthma in children //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 413. – C. 03032.

20. Van der Mheen, M., van Beynum, I.M., Dulfer, K. et al. The CHIP-Family study to improve the psychosocial wellbeing of young children with congenital heart disease and their families: design of a randomized controlled trial. BMC Pediatr 18, 230 (2018).

UDK: 616.36–004:615.031–057+616.36-002.2:57.088.7(035.3)

REVMATOID ARTRIT BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA JIGAR SHIKASTLANISHIDA EPIGENETIK MARKERLARNING PROGNOSTIK AHAMIYATI

Shukurova Fazilat Narmamatovna - D.M.Sc., dotsent
Eshmurzayeva Aida Abdiganiyevna - D.M.Sc., professor
Narmatova Kamola Shovkat qizi - assistent
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Hozirgi kunda eng murakkab masalalardan biri – bir qancha tibbiyot sohalarining kesishgan nuqtasida yuzaga keladigan ko‘p sohalarni qamrab olgan va ko‘plab omillarga bog‘liq muammolarni hal qilishdir. Revmatoyd artrit (RA) bilan og‘rigan bemorlarda jigar zararlanishi turli dorilar tomonidan toksik ta’sirlar, birlamchi kasalliklar (masalan, surunkali virusli gepatitlar, autoimmun gepatitlar, alkogolsiz yog‘li jigar kasalligi yoki steatoz) yoki ikkilamchi kasalliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, bu esa diffuziv bog‘liqlik to‘qimalarining kasalliklari fonida paydo bo‘ladi. Bunday holatlar jigarning patologiyasini baholashdan oldin ikkilamchi holatlarni istisno qilishni talab qiladi.*

RA bemorlarida jigar zararlanishini erta aniqlash uchun jigarning funksional va organik holatini baholashga qaratilgan muntazam tekshiruvlar o‘tkazish zarur. Shuningdek, anamnez ma’lumotlarini to‘g‘ri yig‘ish va klinik-laboratoriya tekshiruv usullarini tanlash muhim ahamiyatga ega. Adabiyotlarga ko‘ra, mikroRNK ifodasi ushbu bemorlar guruhida molekular-diagnostik marker sifatida ishlatilishi yuqori samarali bo‘lishi mumkin.

23. Yu W, Zeng L, Lian X, Jiang L, Xu H, Guo W, Zheng B, Xiao Y. Dynamic cytokine profiles of bloodstream infection caused by Klebsiella pneumoniae in China. Ann Clin Microbiol Antimicrob. 2024 Aug 24;23(1):79. doi: 10.1186/s12941-024-00739-7. PMID: 39182143; PMCID: PMC11344948.

24. Zhao M, Li H, Gan D, Wang M, Deng H, Yang QE. Antibacterial effect of phage cocktails and phage-antibiotic synergy against pathogenic *Klebsiella pneumoniae*. mSystems. 2024 Sep 17; 9(9):e0060724. doi: 10.1128/msystems.00607-24. Epub 2024 Aug 21. PMID: 39166877; PMCID: PMC11406915.

25. Zhong C, Lin S, Li Z, Yang X. Characterization of carbapenem-resistant *Klebsiella pneumoniae* in bloodstream infections: antibiotic resistance, virulence, and treatment strategies. Front Cell Infect Microbiol. 2025 Mar 7; 15:1541704. doi: 10.3389/fcimb.2025.1541704. PMID: 40125512; PMCID: PMC11925884.

PNEVMOKOKK INFEKTSIYALARI: VAKSINA SAMARADORLIGI VA PROFILAKTIKA

Boltayeva Gulira'no Shotursunovna - assistent
Abdumalikova Mavluda Dilshod qizi - talaba
Azzamova Shaxzoda Uyğun qizi - talaba
Raxmatillayev Boburjon Bahodir o'g'li - talaba
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O'zbekiston)

Annotatsiya. *Maqolada pnevmokokk infeksiyalarining epidemiologik ahamiyati, klinik yuklamasi va zamonaviy profilaktika strategiyalari tahlil qilindi. Adabiyotlar sharhi JSST, CDC hamda yetakchi xalqaro jurnallardagi 2015–2026-yillarga oid yuqori darajadagi dalillarga asoslandi. Natijalar pnevmokokk kon'yugat vaksinalari bolalar va kattalarda invaziv kasalliklar hamda vaksina-tipli pnevmoniyani sezilarli kamaytirishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, serotip almashinuvi, qamrovdagi hududiy tafovutlar va xavf guruhlarini to'liq immunizatsiya qilmaslik profilaktika samaradorligini cheklovchi omillar sifatida baholandi.*

Kalit so'zlar: *pnevmokokk infektsiyasi, Streptococcus pneumoniae, kon'yugat pnevmokokk vaksinasi, polisaxarid pnevmokokk vaksinasi, vaksina samaradorligi, invaziv pnevmokokk kasalligi, profilaktika, serotip almashinuvi, nazofaringeal tashuvchilik.*

PNEUMOCOCCAL INFECTIONS: VACCINE EFFECTIVENESS AND PREVENTION

Boltayeva Gulirano Shotursunovna – assistant
Abdumalikova Mavluda Dilshod kizi – student
Azzamova Shaxzoda Uyghun kizi – student
Rakhmatillayev Boburjon Bahodir ugli - student
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *This article analyzes the epidemiological significance, clinical burden, and modern prevention strategies of pneumococcal infections. The literature review was based on high-level evidence from the World Health Organization (WHO), the Centers for Disease Control and Prevention (CDC), and leading international journals covering the period from 2015 to 2026. The findings showed that pneumococcal conjugate vaccines significantly reduce invasive diseases and vaccine-type pneumonia in both children and adults. At the same time, serotype replacement, regional disparities in vaccine coverage, and incomplete immunization of high-risk groups were identified as factors limiting the effectiveness of prevention.*

Keywords: *pneumococcal infection, Streptococcus pneumoniae, pneumococcal conjugate vaccine, pneumococcal polysaccharide vaccine, vaccine effectiveness, invasive pneumococcal disease, prevention, serotype replacement, nasopharyngeal carriage.*

ПНЕВМОКОККОВЫЕ ИНФЕКЦИИ: ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВАКЦИНАЦИИ И ПРОФИЛАКТИКА

Болтаева Гулираъно Шотурсуновна – ассистент
Абдумаликова Мавлуда Дилшод кизи – студент
Аззамова Шахзода Уйгун кизи – студент
Рахматиллаев Бобуржон Баходир угли - студент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *В статье проанализированы эпидемиологическое значение, клиническое бремя и современные стратегии профилактики пневмококковых инфекций. Обзор литературы основан на доказательствах высокого уровня, представленных Всемирной организацией здравоохранения (ВОЗ), Центрами по контролю и профилактике заболеваний (CDC), а также ведущими международными журналами за 2015–2026 годы. Результаты показали, что пневмококковые конъюгированные вакцины значительно снижают частоту инвазивных заболеваний и пневмонии, вызванной вакцинными серотипами, как у детей, так и у взрослых. Вместе с тем серотипическое замещение, региональные различия в охвате вакцинацией и неполная иммунизация групп риска были оценены как факторы, ограничивающие эффективность профилактики.*

Ключевые слова: *пневмококковая инфекция, Streptococcus pneumoniae, пневмококковая конъюгированная вакцина, пневмококковая полисахаридная вакцина, эффективность вакцинации, инвазивное пневмококковое заболевание, профилактика, серотипическое замещение, носительство в носоглотке.*

Kirish. Pnevmokokk infektsiyalari Streptococcus pneumoniae tomonidan chaqiriladigan va klinik jihatdan invaziv hamda noinvaziv shakllarda namoyon bo‘ladigan muhim bakterial kasalliklar guruhiga kiradi. Ular orasida pnevmoniya, otit, sinusit kabi nisbatan ko‘p uchraydigan holatlar bilan bir qatorda bakteriemiya, sepsis va meningit kabi og‘ir invaziv shakllar alohida epidemiologik ahamiyatga ega. Mazkur infeksiyalar ayniqsa 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 50–65 yoshdan katta shaxslar, immuniteti susaygan bemorlar hamda surunkali somatik kasalliklarga ega populyatsiyada yuqori kasallanish va o‘lim xavfi bilan tavsiflanadi[3,19]. CDC va ACIP ma’lumotlariga ko‘ra, pnevmokokk infeksiyalari respirator infeksiyalar, bakteriemiya va meningitning keng tarqalgan bakterial sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda, shu bilan birga bolalarda kon’yugat vaksinalar keng qo‘llanilishi natijasida kasallikning nafaqat bevosita, balki bilvosita kamayishi ham kuzatilgan.

Global sog‘liqni saqlash nuqtai nazaridan pnevmokokk infektsiyalari hanuz muhim kasallik yukini saqlab turibdi. So‘nggi yillardagi sharh va epidemiologik baholashlar pnevmokokk kasalliklari, ayniqsa bolalarda, emlash dasturlari joriy etilganiga qaramay, jiddiy yo‘qotishlar manbai bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. Zamonaviy manbalarda ushbu patogen bilan bog‘liq holda 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida har yili 300 mingdan ortiq o‘lim kuzatilishi qayd etiladi[6,25,29]; bu esa pnevmokokk infektsiyalariga qarshi profilaktikaning klinik emas, balki strategik jamoat salomatligi masalasi ekanini anglatadi. Bunda kasallik yukining hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi, sog‘liqni saqlash tizimi imkoniyatlari, vaksina qamrovi va serotiplarning lokal aylanishi muhim rol o‘ynaydi.

Pnevmokokkka qarshi vaksinalar orasida ayniqsa pnevmokokk kon’yugat vaksinalari (PCV) profilaktikaning eng samarali vositasi sifatida e’tirof etiladi. JSST ma’lumotlariga ko‘ra, PCV tarkibidagi serotiplar yosh bolalarda invaziv pnevmokokk kasalliklarining katta qismini qamrab oladi va aynan kon’yugatsiya texnologiyasi tufayli 2 yoshgacha bo‘lgan bolalarda ham immunogenlikni oshiradi[4,6,15]. Kon’yugat vaksinalarning ilmiy va amaliy ustunligi shundaki, ular nafaqat individual himoya yaratadi, balki nazofaringeal tashuvchanlikni kamaytirish orqali populyatsion transmissiyani ham pasaytiradi. Natijada “herd immunity” — jamoaviy immunitet effekti shakllanadi, bu esa emlanmagan yosh guruhlarida ham kasallanishni qisqartirishga xizmat qiladi.

Vaksina samaradorligi bo‘yicha to‘plangan dalillar yetarlicha kuchli. CDC keltirgan CAPiTA randomizatsiyalangan platsebo-nazoratli tadqiqoti natijalariga ko‘ra, PCV13 kattalarda vaksina-serotipli pnevmokokk pnevmoniyasiga qarshi 46%, nobakteriemik pnevmokokk pnevmoniyasiga qarshi 45% va invaziv pnevmokokk kasalligiga qarshi 75% samaradorlik ko‘rsatgan[2,29,31,32]. So‘nggi tizimli sharhlar esa bolalarda 7- va 13-valent kon’yugat vaksinalar invaziv pnevmokokk kasalligiga qarshi yuqori real samaradorlikka ega ekanini, ayrim meta-tahlillarda jamlangan

ko‘rsatkich taxminan 88,8% ga yetishini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, uzoq muddatli kuzatuvlar PCV10 va PCV13 joriy etilishi vaksina-serotiplar bilan bog‘liq invaziv kasalliklarni sezilarli kamaytirganini tasdiqlaydi.

Shunga qaramay, pnevmokokk profilaktikasi sohasida barcha muammolar hal etilgan deb bo‘lmaydi. Kon’yugat vaksinalar fonida vaksina-serotipli kasalliklarning kamayishi bilan bir vaqtda, ayrim hududlarda vaksina tarkibiga kirmaydigan serotiplar ulushining ortishi, ya’ni serotip almashinuvi fenomeni kuzatilmoqda[1,23,35]. Shu sababli yangi avlod vaksinalari — PCV15, PCV20 va ayrim mamlakatlarda PCV21 — epidemiologik jihatdan dolzarb serotiplarni kengroq qamrab olish maqsadida ishlab chiqildi va tavsiyalarga kiritildi. 2024-yil oktabr oyida ACIP tomonidan AQShda 50 yosh va undan katta, avval PCV olmagan yoki emlanish tarixi noma’lum bo‘lgan barcha kattalarga bitta doza PCV tavsiya etilgani ushbu yo‘nalishdagi strategik yangilanishlardan biridir[4,5,29,40]. Bundan tashqari, 2024-yildagi tizimli sharh va meta-tahlil PCV15 ning bolalar va kattalarda umumiy serotiplar bo‘yicha PCV13 dan kam emasligini, 22F va 33F kabi qo‘shimcha serotiplar bo‘yicha esa yuqoriroq immun javob chaqirishini ko‘rsatdi[20,22,33,37].

Profilaktika samaradorligining amaliy natijasi ko‘p jihatdan emlash qamrovi bilan belgilanadi. JSST indikatorlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 1 yoshli bolalarda pnevmokokk kon’yugat vaksinasining uchinchi dozasi (PCV3) bilan qamrov 2008-yildagi 4% dan 2024-yilda 67% gacha oshgan[7,8,21]. Bu sezilarli yutuq bo‘lsa-da, universal himoya uchun yetarli emas, chunki qamrovdagi hududiy tafovutlar, “zero-dose” bolalar muammosi va milliy immunizatsiya dasturlaridagi logistika tafovutlari kasallik yukining saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Demak, pnevmokokk infektsiyalariga qarshi kurashda faqat vaksinaning mavjudligi emas, balki qamrovning barqarorligi, xavf guruhlarini to‘liq qamrab olish, epidemiologik monitoring va serotip nazoratini uyg‘unlashtirgan kompleks profilaktik yondashuv zarur.

Shu nuqtai nazardan, pnevmokokk infektsiyalari bo‘yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, vaksina samaradorligini klinik va populyatsion darajada baholash hamda profilaktika strategiyalarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, invaziv shakllar, antibiotiklarga chidamli shtammlar, serotiplar dinamikasi va yangi valentli vaksinalarning amaliy o‘rni bo‘yicha dalillarni tizimli jamlash sog‘liqni saqlash siyosati va klinik amaliyot uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Tadqiqot maqsadi. Ushbu ilmiy adabiyotlar sharhining maqsadi pnevmokokk infektsiyalarining epidemiologik ahamiyatini, pnevmokokk vaksinalarining bolalar va kattalardagi samaradorligini, serotip almashinuvi bilan bog‘liq zamonaviy muammolarni hamda spesifik va nospesifik profilaktika choralari samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Material va usullar. Ushbu sharh narrativ-tahliliy yondashuv asosida tayyorlandi. Manbalar sifatida JSST, Kasalliklarni nazorat va oldini olish markazlari (CDC), The Lancet Infectious Diseases, New England Journal of Medicine, Pathogens, Frontiers in Pediatrics, Vaccine X va MMWR dagi 2015–2026-yillar oralig‘ida e’lon qilingan tizimli sharhlar, meta-tahlillar, randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va rasmiy epidemiologik hisobotlar tanlab olindi. Ustuvorlik yuqori darajadagi dalillarga — meta-tahlil, ko‘p markazli kuzatuv, GBD tahlillari va rasmiy tavsiyalarga — berildi. Takrorlanuvchi, metodologik sifati past yoki ikkilamchi interpretatsiyaga asoslangan manbalar cheklandi.

Natijalar. Pnevmokokk profilaktikasining immunologik asosi vaksina turiga bog‘liq. Amaliyotda kon’yugat vaksinalar (PCV10, PCV13, PCV15, PCV20, PCV21) va 23-valent polisaxarid vaksina (PPSV23) qo‘llanadi[3,27,35]. Kon’yugat vaksinalar T-hujayraga bog‘liq immun javobni shakllantirib, immun xotirani kuchaytiradi va nazofaringeal tashuvchilikni kamaytirish orqali bilvosita populyatsion himoya beradi; PPSV23 esa serotip qamrovini kengaytiradi, biroq tashuvchilik va shilliq qavat immunitetiga ta’siri nisbatan cheklangan. Zamonaviy tavsiyalarda bolalar uchun asosan PCV, kattalarda esa PCV15/20/21 va zarur holatlarda PPSV23 kombinatsiyasi qo‘llanadi; masalan, CDC 2026-yil tavsiyalarida PCV15 dan keyin PPSV23 qo‘shimcha doza tavsiya etiladi,

PCV20 yoki PCV21 qo‘llanganda esa ko‘pchilik holatda qo‘shimcha PPSV23 talab qilinmaydi[13,20,35].

Bolalarda vaksina samaradorligi bo‘yicha dalillar juda kuchli. 2025-yilgi meta-tahlilda vaksina-serotipli invaziv pnevmokokk kasalligiga qarshi pooled samaradorlik “asosiy doza + buster” sxemasida 94,4%, faqat 1 ta birlamchi dozada 66,8%, 2 ta birlamchi dozada 78,8% va 3 ta birlamchi dozada 82,0% bo‘lgani ko‘rsatildi[15,20,34]. Shu tadqiqot buster doza kiritilgan sxemalarning eng barqaror himoyani berishini tasdiqladi. Bundan tashqari, PSERENADE tarmog‘ining 2025-yilgi global tahliliga ko‘ra, PCV10 yoki PCV13 joriy qilinganidan 6 yil o‘tib, 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda barcha serotipli invaziv pnevmokokk kasalligi 58–74% ga kamaygan[6,11]. Bu natija vaksinalarning nafaqat nazariy, balki real hayot sharoitidagi kuchli populyatsion ta’sirini ko‘rsatadi.

Kattalarda dalillar biroz murakkabroq, ammo baribir ijobiy. CAPiTA randomizatsiyalangan klinik tadqiqotida PCV13 vaksinasining vaksina-tipli invaziv pnevmokokk kasalligiga qarshi samaradorligi 75%, vaksina-tipli pnevmokokk pnevmoniyasiga qarshi esa 45,6% bo‘lgan[12,36]. 2023-yilgi tizimli sharh va meta-tahlilda PCV13 ning real amaliyotdagi samaradorligi vaksina-tipli invaziv kasallikka qarshi 47–68%, vaksina-tipli pnevmokokk pnevmoniyasiga qarshi 38–68% diapazonda bo‘lgani, PPSV23 ning pooled samaradorligi esa vaksina-tipli invaziv kasallikka qarshi 45% bo‘lgani, biroq vaksina-tipli pnevmoniyaga qarshi samaradorligi 18% bo‘lib, ishonch oralig‘i nolni kesib o‘tishi qayd etilgan[12,28]. Bu farq klinik mantiqqa ham mos keladi: kon’yugat vaksinalar invaziv shakllar bilan birga shilliq qavatdagi transmissiyani ham yaxshiroq nazorat qiladi.

Yuqori valentli yangi vaksinalar residual kasallik yukini qisqartirish uchun ishlab chiqilgan. CDCning AQShdagi kuzatuv ma’lumotlariga ko‘ra, 2018–2022-yillarda 50–64 yoshli kattalarda invaziv pnevmokokk kasalligi holatlarining 56% i PCV20, 83% i esa PCV21 tarkibidagi serotiplar bilan bog‘liq bo‘lgan[10,17]. Klinik sinovlar bo‘yicha PCV15 umumiy serotiplar yuzasidan PCV13 ga nisbatan noninferior bo‘lgan va 22F hamda 33F bo‘yicha kuchliroq immun javob ko‘rsatgan; PCV20 esa PCV13 bilan umumiy serotiplar bo‘yicha noninferior bo‘lgan[10,17,20,22]. Bu ma’lumotlar residual kasallikning muhim qismi hali ham kengroq valentli vaksinalar bilan qamrab olinishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shunga qaramay, pnevmokokk nazoratining “klassik dushmani” — serotip almashinuvi — saqlanib qolmoqda. 2025-yilgi global PSERENADE tahlili uzoq muddatli PCV10/13 qo‘llanilishi yosh bolalarda invaziv pnevmokokk kasalligini sezilarli pasaytirganini, ammo vaksina tarkibiga kirmaydigan serotiplar ulushi ortib borishini ko‘rsatdi. Qolgan invaziv kasallikning muhim qismi yangi 20–25 valentli vaksinalar bilan qoplanishi mumkinligi qayd etilgan[21,26,27]. Biroq Angliyadagi modellashtirish tadqiqoti 1+1 chaqaloqlar sxemasida PCV13 ni PCV20 bilan almashtirish sezilarli foyda berishi mumkinligini, PCV15 esa ayrim sharoitlarda umumiy kasallik yukini oshirib yuborishi mumkinligini ko‘rsatdi[16,23]. Ilm-fan ba’zan juda halol bo‘ladi: “ko‘proq valent” har doim “avtomatik ravishda yaxshiroq” degani emas.

Profilaktikada asosiy o‘rin spesifik immunoprofilaktikaga tegishli. JSST barcha mamlakatlarda bolalar emlash dasturiga PCV ni kiritishni tavsiya qiladi[9,18,26]. Biroq nospesifik choralar ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak: tamaki chekishni kamaytirish, surunkali yurak-o‘pka-buyrak-jigar kasalliklarini nazorat qilish, qandli diabetni kompensatsiya qilish, immunokomprometlangan shaxslarni risk asosida emlash, bolalar va qariyalar yashaydigan gavjum muassasalarda infeksiya nazoratini kuchaytirish, yetarli ovqatlanish va nafas yo‘llari gigiyenasini ta’minlash pnevmokokk kasalligi xavfini kamaytiradi. CDC ga ko‘ra, bolalar <5 yosh va kattalar ≥50 yosh, shuningdek tamaki chekish, alkogolizm, diabet, surunkali kasalliklar, koxlear implant va likvor oqishi bo‘lgan shaxslar alohida xavf guruhini tashkil etadi[14,25].

Muhokama. *Immunologik mexanizmlar va vaksina turlarining qiyosiy tahlili.* Pnevmokokk profilaktikasining samaradorligi bevosita qo‘llanilayotgan vaksinaning immunologik platformasiga bog‘liq. Tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, kon’yugat vaksinalar

(PCV) va polisaxarid vaksinalar (PPSV23) o‘rtasidagi fundamental farq faqatgina valentlikda emas, balki immun javobning sifatidadir. PCV vaksinalari tarkibidagi polisaxaridlarning oqsil tashuvchi bilan bog‘lanishi T-hujayraga bog‘liq immun javobni yuzaga keltirishi, bu esa o‘z navbatida uzoq muddatli immun xotira va shilliq qavat immunitetini shakllantirishi bilan tavsiflanadi.

Aynan nazofaringeal tashuvchilikning kamayishi PCV vaksinalarining eng muhim yutug‘idir. Bu mexanizm orqali emlanmagan aholi qatlamlari orasida ham "bilvosita populyatsion himoya" (herd immunity) yuzaga keladi. PPSV23 esa, valentlik darajasi yuqori bo‘lishiga qaramay, T-hujayradan mustaqil javob hosil qiladi. Bu immunologik xususiyat uning shilliq qavatlarda pnevmokokk kolonizatsiyasini to‘xtata olmasligini va immun xotiraning sustligini tushuntiradi. Shu bois, zamonaviy klinik tavsiyalarda, xususan, 2026-yilgi CDC ko‘rsatmalarida PCV ning ustuvorligi va PPSV23 ning faqat serotip qamrovini kengaytirish uchun yordamchi vosita sifatida qaralishi to‘laqonli asoslangan.

Bolalar emlash dasturlarining optimallashuvi. Tadqiqotda keltirilgan 2025-yilgi meta-tahlil ma’lumotlari bolalarda emlash sxemasining muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. "Asosiy doza + buster" sxemasi bo‘yicha olingan 94,4% lik samaradorlik ko‘rsatkichi pnevmokokkga qarshi kurashda buster dozaning hal qiluvchi rolini ko‘rsatadi. Bu natija shuni anglatadiki, faqatgina birlamchi immunizatsiya (primer series) bilan cheklanish uzoq muddatli himoyani ta’minlash uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin.

PSERENADE tarmog‘ining global tahlili PCV vaksinalarining real amaliyotdagi (real-world evidence) kuchini namoyish etdi. 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda invaziv pnevmokokk kasalligining (IPK) 58–74% ga kamayishi – bu nafaqat tibbiy, balki iqtisodiy jihatdan ham ulkan yutuqdir. Bu ko‘rsatkichlar rivojlanayotgan mamlakatlarda PCV ni milliy emlash kalendariga kiritish va qamrovni oshirish zarurligini ko‘rsatuvchi eng kuchli dalildir.

Kattalarda samaradorlik: Pnevmoniya va invaziv shakllar o‘rtasidagi farq. Kattalar orasida vaksina samaradorligini tahlil qilishda IPK va noinvaziv pnevmoniya o‘rtasidagi farqni inobatga olish lozim. CAPiTA tadqiqoti va 2023-yilgi tizimli sharhlar shuni ko‘rsatadiki, vaksinalar IPKga qarshi pnevmoniyaga nisbatan sezilarli darajada samaraliroqdir. Masalan, PCV13 ning pnevmoniyaga qarshi samaradorligi 45,6% bo‘lgani holda, IPKga qarshi 75% ni tashkil etishi pnevmoniya etiologiyasining polimikrob tabiatga ega ekanligi va diagnostik murakkabliklar bilan tushuntirilishi mumkin.

PPSV23 ning pnevmoniyaga qarshi samaradorligi (18%) pastligi va statistik jihatdan ishonchsizligi (ishonch oralig‘i nolni kesib o‘tishi) ushbu vaksinani kattalarda yagona profilaktika chorasi sifatida qo‘llash samarali emasligidan dalolat beradi [18]. Bu holat PCV15, PCV20 va PCV21 kabi yangi avlod vaksinalarining bozorga kirib kelishini va ularning standart profilaktika sxemalariga kiritilishini taqozo etdi.

Serotip almashinuvi va yuqori valentli vaksinalar: Miqdor va sifat balansi. Pnevmokokk nazoratidagi eng dolzarb muammo — serotip almashinuvi (serotype replacement) fenomenidir. Vaksina tarkibidagi serotiplar yo‘qotilgach, bo‘shagan ekologik fashani vaksina tarkibiga kirmaydigan (non-vaccine types, NVT) serotiplar egallaydi. 2025-yilgi PSERENADE ma’lumotlari bu jarayonning muqarrarligini ko‘rsatadi.

Yangi 20, 21 va 25-valentli vaksinalarning ishlab chiqilishi aynan shu "residual" (qoldiq) kasallik yukini kamaytirishga qaratilgan. Masalan, 50–64 yoshli kattalarda kasalliklarning 83% i PCV21 tarkibidagi serotiplar bilan bog‘liqligi bu vaksinaning yuqori salohiyatini ko‘rsatadi [19]. Biroq, Angliyadagi modellashtirish tadqiqoti muhim bir ogohlantirishni beradi: "ko‘proq valent har doim ham yaxshi emas". PCV15 ning ayrim holatlarda kasallik yukini oshirishi mumkinligi haqidagi prognozlar shuni ko‘rsatadiki, vaksina tarkibidagi har bir yangi serotip o‘zaro immunologik interferensiyaga kirishishi yoki mavjud serotiplarga nisbatan javobni susaytirishi mumkin. Shuning uchun, yangi vaksinalarni joriy etishda har bir mintaqaning mahalliy epidemiologik tahlili va serotiplar tarqalish xaritasi asosiy rol o‘ynashi kerak.

Kompleks profilaktika va risk guruhlari. Tadqiqot natijalari pnevmokokk profilaktikasini faqatgina spesifik emlash bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Nospesifik omillar — tamaki chekish, qandli diabet va surunkali kasalliklar pnevmokokk infeksiyasining rivojlanishi uchun "shart-sharoit" yaratadi. Tamaki chekish shilliq qavatdagi siliar apparat faoliyatini buzishi orqali pnevmokokk adgeziyasini osonlashtiradi, bu esa emlangan shaxslarda ham kasallik xavfini saqlab qoladi.

Ayniqsa, koxlear implantli shaxslar va likvor oqishi bor bemorlar IPK uchun o‘ta yuqori xavf guruhida ekanligi, ularda emlash strategiyasi umumiy aholidan farq qilishi va ko‘proq agressiv bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Pnevmokokk infektsiyalari global miqyosda, ayniqsa 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar, keksa yoshdagi shaxslar va komorbid holatlarga ega bemorlar orasida yuqori kasallanish va o‘lim xavfi bilan bog‘liq dolzarb infeksion muammo bo‘lib qolmoqda.

1. Pnevmokokk kon’yugat vaksinalari bolalar va kattalarda invaziv pnevmokokk kasalliklari hamda vaksina-tipli pnevmokokk pnevmoniyasini sezilarli kamaytiradi, shu sababli ular spesifik profilaktikaning asosiy komponenti sifatida qaralishi kerak.

2. Emlash sxemasining to‘liq bajarilishi, ayniqsa birlamchi dozalar va buster dozani o‘z vaqtida qo‘llash, maksimal immun himoya shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qisman emlash esa kutilgan epidemiologik samarani to‘liq bermaydi.

3. Yangi avlod yuqori valentli vaksinalar — PCV15, PCV20 va PCV21 — residual kasallik yukini kamaytirish uchun muhim istiqbolga ega, biroq ularning real samarasi milliy serotip tuzilmasi va epidemiologik vaziyatni hisobga olgan holda baholanishi kerak.

4. Serotip almashinuvi pnevmokokk profilaktikasidagi asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda; shu sababli uzluksiz mikrobiologik va epidemiologik kuzatuv tizimi vaksina siyosatini yangilab borish uchun zarur ilmiy asos yaratadi.

5. Pnevmokokk infektsiyalarini samarali nazorat qilish faqat vaksina qo‘llash bilangina cheklanmaydi; yuqori emlash qamrovi, xavf guruhlarini maqsadli immunizatsiya qilish, surunkali kasalliklarni nazorat qilish, chekishni kamaytirish va infeksiya nazorat choralarini kuchaytirish bilan birgalikdagi kompleks profilaktik yondashuv eng maqbul strategiya hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Anglemyer, A., et al. (2024). The impact of pneumococcal serotype replacement on the incidence of invasive pneumococcal disease. The Lancet Regional Health – Western Pacific.

2. Bonten, M. J. M., Huijts, S. M., Bolkenbaas, M., Webber, C., Patterson, S., Gault, S., van Werkhoven, C. H., van Deursen, A. M. M., Sanders, E. A. M., Verheij, T. J. M., Patton, M., McDonough, A., Moradoghli-Haftvani, A., Smith, H., Mellelieu, T., Pride, M. W., Crowther, G., Schmoele-Thoma, B., Scott, D. A.,... Grobbee, D. E. (2015). Polysaccharide conjugate vaccine against pneumococcal pneumonia in adults. The New England Journal of Medicine, 372(12), 1114–1125. https://doi.org/10.1056/NEJMoa1408544

3. Centers for Disease Control and Prevention. (2026). Pneumococcal vaccine recommendations. https://www.cdc.gov/pneumococcal/hcp/vaccine-recommendations/index.html

4. Kobayashi, M., Farrar, J. L., Gierke, R., Leidner, A. J., Campos-Outcalt, D., Morgan, R. L., Long, S. S., Talbot, H. K., Poehling, K. A., & Pilishvili, T. (2025). Expanded recommendations for use of pneumococcal conjugate vaccines among adults aged ≥50 years: Recommendations of the Advisory Committee on Immunization Practices — United States, 2024. Morbidity and Mortality Weekly Report, 74(1), 1–8.

5. Kobayashi, M., Leidner, A. J., Gierke, R., Farrar, J. L., Morgan, R. L., Campos-Outcalt, D., Poehling, K. A., Long, S. S., Talbot, H. K., & Pilishvili, T. (2023). Use of 15-valent pneumococcal conjugate vaccine and 20-valent pneumococcal conjugate vaccine among U.S. adults: Updated recommendations of the Advisory Committee on Immunization Practices — United States, 2022. Morbidity and Mortality Weekly Report Recommendations and Reports, 72(3), 1–39.

6. World Health Organization. (2019). Pneumococcal conjugate vaccines in infants and children under 5 years of age: WHO position paper – February 2019. Weekly Epidemiological Record, 94(8), 85–104.

7. World Health Organization. (2025). WHO position paper: Pneumococcal conjugate vaccines in infants and children aged <5 years – September 2025. Weekly Epidemiological Record.

8. World Health Organization. (2025). Pneumococcal conjugate 3rd dose (PCV3) immunization coverage among 1-year-olds (%). WHO Data.

9. World Health Organization. (2025). Pneumococcal vaccination coverage. WHO Immunization Data Portal. https://immunizationdata.who.int/global/wiise-detail-page/pneumococcal-vaccination-coverage

10. Wagner, G., Gartlehner, G., Thaler, K., Ledinger, D., Feyertag, J., Klerings, I., Saif-Ur-Rahman, K. M., Devane, D., Olsson, K., Adel Ali, K., Vygen-Bonnet, S., Salo, H., Zavadska, D., Grgic Vitek, M., Oona, M., Cunney, R., Tuerlinckx, D., Kristensen Lomholt, F., & Sommer, I. (2024). Immunogenicity and safety of the 15-valent pneumococcal conjugate vaccine: A systematic review and meta-analysis. NPJ Vaccines. https://www.nature.com/articles/s41541-024-01048-y

11. Bennett, J. C., et al. (2025). Global impact of ten-valent and 13-valent pneumococcal conjugate vaccines on invasive pneumococcal disease in all ages: The PSERENADE project, a global surveillance analysis. The Lancet Infectious Diseases.

12. Peng R, et al. Effectiveness and impact of 7- and 13-valent pneumococcal conjugate vaccines: systematic literature review and meta-analysis. Expert Rev Vaccines. 2025. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC12530490/

13. Prunas, O., va boshq. (2024). Estimated Population-Level Impact of Pneumococcal Conjugate Vaccines against all-cause pneumonia mortality among unvaccinated age groups in five Latin American countries.

14. Centers for Disease Control and Prevention. (2026). Summary of risk-based pneumococcal vaccination recommendations. https://www.cdc.gov/pneumococcal/hcp/vaccine-recommendations/risk-indications.html

15. Chang, C. Y., et al. (2025). Effectiveness of vaccine dosing schedules for pneumococcal conjugate vaccines against vaccine-type invasive pneumococcal disease in children: A systematic review and meta-analysis. IJID Regions.

16. Choi, Y. H., Bertran, M., Litt, D. J., Ladhani, S. N., & Miller, E. (2024). Potential impact of replacing the 13-valent pneumococcal conjugate vaccine with 15-valent or 20-valent pneumococcal conjugate vaccine in the 1 + 1 infant schedule in England: A modelling study. The Lancet Public Health.

17. Essink, B., Sabharwal, C., Cannon, K., Frenck, R., Lal, H., Xu, X., Sundaraiyer, V., Peng, Y., Koury, K., Pride, M. W., & Gruber, W. C. (2022). Pivotal phase 3 randomized clinical trial of the safety, tolerability, and immunogenicity of 20-valent pneumococcal conjugate vaccine in adults aged 18 years and older. Clinical Infectious Diseases, 75(3), 390–398. https://doi.org/10.1093/cid/ciab990

18. Farrar, J. L., Childs, L., Ouattara, M., Akhter, F., Britton, A., Pilishvili, T., & Kobayashi, M. (2023). Systematic review and meta-analysis of the efficacy and effectiveness of pneumococcal vaccines in adults. Pathogens, 12(5), 732. https://doi.org/10.3390/pathogens12050732

19. Kobayashi, M., Farrar, J. L., Gierke, R., Leidner, A. J., Campos-Outcalt, D., Morgan, R. L., Long, S. S., Talbot, H. K., Poehling, K. A., & Pilishvili, T. (2025). Expanded recommendations for use of pneumococcal conjugate vaccines among adults aged ≥50 years: Recommendations of the Advisory Committee on Immunization Practices — United States, 2024. Morbidity and Mortality Weekly Report, 74(1), 1–8.

20. Kobayashi, M., Leidner, A. J., Gierke, R., Farrar, J. L., Morgan, R. L., Campos-Outcalt, D., Poehling, K. A., Long, S. S., Talbot, H. K., & Pilishvili, T. (2023). Use of 15-valent pneumococcal conjugate vaccine and 20-valent pneumococcal conjugate vaccine among U.S. adults: Updated recommendations of the Advisory Committee on Immunization Practices

— United States, 2022. Morbidity and Mortality Weekly Report: Recommendations and Reports, 72(3), 1–39.

21. Quesada, M. G., et al. (2025). Serotype distribution of remaining invasive pneumococcal disease after long-term use of tenvalent or 13-valent pneumococcal conjugate vaccines: The PSERENADE project. The Lancet Infectious Diseases.

22. Wagner, G., Gartlehner, G., Thaler, K., Ledinger, D., Feyertag, J., Klerings, I., Saif-Ur-Rahman, K. M., Devane, D., Olsson, K., Ali, K. A., Vygen-Bonnet, S., Salo, H., Zavadska, D., Grgic Vitek, M., Oona, M., Cunney, R., Tuerlinckx, D., Lomholt, F. K., & Sommer, I. (2024). Immunogenicity and safety of the 15-valent pneumococcal conjugate vaccine: A systematic review and meta-analysis. NPJ Vaccines, 9, Article 235.

23. Agzamova Sh.A, Mirraximova M.X., Bolalarda pnevmoniya: O‘quv qo‘llanma. Toshkent tibbiyot akademiyasi. (2023).

24. Bender, R. G., Ikuta, K. S., Blok, L. M., Knoll, M. D., Dwyer-Lindgren, L., Mulholland, K.,... GBD 2021 Lower Respiratory Infections and Antimicrobial Resistance Collaborators. (2024). Global, regional, and national incidence and mortality of lower respiratory infections and aetiologies from 1990 to 2021: A systematic analysis from the Global Burden of Disease Study 2021. The Lancet Infectious Diseases, 24(8). doi: 10.1016/S1473-3099 (24) 00176-2

25. CDC. Pneumococcal vaccination: Information for health care providers. https:// www.cdc.gov/vaccines/hcp/by-disease/ pneumo.html

26. Centers for Disease Control and Prevention. (2026, February 25). Clinical overview of pneumococcal disease.

27. Dai, Q., va boshq. (2025). Efficacy, immunogenicity, and safety of pneumococcal conjugate vaccine in children: a systematic review and meta-analysis. Frontiers in Pediatrics.

28. Karimdjanov, I.A.; Shomansurova, E.A; Madraximov, P.M. Pnevmokokk infeksiyasiga qarshi emlangan va emlanmagan erta yoshli bolalarda pnevmoniya kasalligini davolashga zamonaviy yondashuvlar. Педиатрия научно-практический журнал (2023), p333-343

29. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. (2025). Shifoxonadan tashqari pnevmoniya: Tashxislash va davolash bo‘yicha milliy klinik protokol.

30. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021, 30-sentabr). Aholini majburiy emlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/-5524039

31. Ouldali, N., va boshq. (2021). Invasive pneumococcal disease incidence in children and adults in France before and after the pneumococcal conjugate vaccine era. The Lancet Infectious Diseases.

32. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. (2024). “Shifoxonadan tashqari pnevmoniya” nozologiya bo‘yicha milliy klinik protokol. Akademik Shakir Alimov nomidagi ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

33. Rahmonov, R. N. (2023). O‘zbekiston respublikasida profilaktik emlash tizimidagi islohotlarning afzalliklari. In J. A. Rizaev (Ed.), 77-y xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya “Fundamental, amaliy tibbiyot va farmatsiya yutuqlari” materiallari to‘plami (p. 131). Samarqand davlat tibbiyot universiteti.

34. Wagner G, et al. Immunogenicity and safety of the 15-valent pneumococcal conjugate vaccine, a systematic review and meta-analysis. npj Vaccines. 2024. https://www.nature.com/articles/s41541-024-01048-y

35. Weaver J, et al. Incidence of pneumococcal disease in children in Germany after the introduction of pneumococcal conjugate vaccination. BMC Pediatrics. 2024. https:// bmcpediatr.biomedcentral.com/articles/10. 1186/s12887-024-05003-7

STOMATOLOGIYA AMALIYOTIDA ADGEZIV TIZIMLARNING RIVOJLANISH DINAMIKASI

Zakirova Hilola Xatamitdinovna – t.f.n., dotsent
Profi University (Toshkent, O‘zbekiston)
Ibragimov Abdulla Xatamitdinovich – assistent
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)
Abdulazizov Temurbek Ulug’bek o’g’li – assistant
Profi University (Tashkent, Uzbekistan)

Annotatsiya. *Rivojlangan stomatologiya minimal invaziv texnologiyalar va yuqori estetik davolash usullarini keng joriy etmoqda. Bu jarayonda adgeziv tizimlar tishning qattiq to‘qimalari bilan restavratsion materiallar o‘rtasida mustahkam va uzoq muddatli bog‘lanishni ta’minlab, muhim ahamiyat kasb etadi. Adgeziya sifati davolash samaradorligi, restavratsiyalarning xizmat muddati va ikkilamchi kariyesning oldini olish bilan bevosita bog‘liq.*

Shu sohadagi katta yutuqlarga qaramasdan, ularning uzoq muddatli barqarorligi, qo‘llash texnikasiga sezgirligi va og‘iz bo‘shlig‘idagi turli omillar ta’siri bilan bog‘liq muammolar hali ham mavjud. Shuning uchun zamonaviy adgeziv tizimlarning xususiyatlari, samaradorligi va ularni qo‘llashning optimal shartlarini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Kalit so’zlar: *adgeziv tizim, bonding, kompozit.*

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ И ИННОВАЦИИ В АДГЕЗИВНЫХ СИСТЕМАХ В СТОМАТОЛОГИИ

Закирова Хилола Хатамитдиновна – к.м.н., доцент
Profi University (Ташкент, Узбекистан)
Ибрагимов Абдулла Хатамитдинович – ассистент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)
Абдулазизов Темурбек Улугбек угли – ассистент
Profi University (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Целью данного литературного обзора является изучение разных поколений адгезивных систем и их сравнительная характеристика. Современная стоматология стремительно развивается, внедряя минимально инвазивные технологии и высокоэстетичные методы лечения. В этом контексте адгезивные системы играют ключевую роль, обеспечивая прочное и долговечное соединение реставрационных материалов с твердыми тканями зуба. От качества адгезии напрямую зависят клинический успех лечения, срок службы реставраций и профилактика вторичного кариеса.*

Несмотря на значительный прогресс в разработке адгезивных материалов, остаются нерешённые вопросы, связанные с их долговечностью, чувствительностью к технике применения и влиянием различных факторов полости рта. В связи с этим изучение свойств современных адгезивных систем, их эффективности и оптимальных условий применения является актуальной задачей современной стоматологии.

Ключевые слова: *адгезивные системы, бондинг, композит.*

INNOVATIONS IN DENTAL ADHESIVE SYSTEMS

Zakirova Khilola Khatamitdinovna – Ph.D., associate professor
Profi University (Tashkent, Uzbekistan)
Ibragimov Abdulla Khatamitdinovich – assistant
Tashkent state medical university (Tashkent, Uzbekistan)
Abdulazizov Temurbek Ulughbek ugli – assistant,
Profi University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *Modern dentistry is rapidly evolving with the introduction of minimally invasive technologies and highly aesthetic treatment approaches. In this context, adhesive systems play a crucial role by providing a strong and durable bond between restorative materials and the hard tissues of the tooth. The quality of adhesion directly influences the clinical success of treatment, the longevity of restorations, and the prevention of secondary caries.*

Despite significant advances in the development of adhesive materials, unresolved issues remain regarding their long-term stability, technique sensitivity, and the influence of various oral environmental factors. Therefore, studying the properties of modern adhesive systems, their effectiveness, and the optimal conditions for their application remains a relevant and important task in contemporary dentistry.

Keywords: *adhesive systems, bonding, composite.*

Birinchi yopishtiruvchi tizimlar 1949-yilda Gebr. de Trey AG (Shveytsariya) tomonidan patentlangan. Tizim ko'p funksiyali monomerlarga asoslangan edi: glitserofosfor kislotasi dimetakrilati, glyukon kislotasining di- va trimetakrilatlar [1, 2, 22]. Bu monomerlar va ularning modifikatsiyalari kompozitlar va shisha ionomer tsementlari uchun zamonaviy yopishtiruvchi moddalarda keng qo'llaniladi [3, 4].

Ushbu usullarning rivojlanishi 1955-yilda M. Buonokore bilan boshlangan. U plomba materialining tishlarga yopishishi, agar emal fosfor kislotasi bilan oldindan ishlov berilsa, sezilarli darajada yaxshilanishini kuzatgan [5–7, 31]. U tish emalini kislotali o'yib ishlov berishni taklif qildi, bu esa polimerizatsiya qiluvchi qatronlar bilan sirtning bog'lanish kuchini sezilarli darajada oshirdi [8–11].

1959-yilda R. Bowen noorganik plomba moddasi va polimerlanadigan qatronni o'z ichiga olgan birinchi kompozit plomba materialini patentladi [6, 14, 17]. Polimerlanadigan qatron sifatida Bowen o'z tarkibida epoksi parchalarini o'z ichiga olgan monomerni taklif qildi.sid qatroni va ikkita metakrilat guruhi — BisGMA. Bu monomer stomatologiyada ishlatiladigan ko'pgina kompozitlar va yopishtiruvchi moddalarda universal bog'lovchi hisoblanadi [12–16].

1970-yillarda xorijiy adabiyotlarda breket siljishi paytida materialning yopishqoqlik kuchini o'rganish bo'yicha birinchi tadqiqot paydo bo'ldi [17, 18, 21]. Bugungi kunga qadar yopishqoqlik kuchiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlaydigan mingdan ortiq tadqiqotlar o'tkazildi [16, 18]: ishlatiladigan yopishqoq tizimlar va yelim turi, ishlatiladigan breket tizimining materiali, so'lak va emal tarkibi [17–19]. Yopishqoq tizimning yopishqoqlik kuchiga boshqa omillar ham ta'sir qiladi: dentin turi, surtma qatlamining qalinligi va tarkibi, tishning yoshi, dentin naychalari va emal prizmalarining yo'nalishi, bo'yin sohasida tish tsementining mavjudligi va boshqalar [20–23, 30].

Zamonaviy yopishtiruvchi tizimlar uchun ma'lum talablar mavjud. Ideal yopishtiruvchi tizim quyidagi parametrlarga javob berishi kerak:

1) tish to'qimalarining xususiyatlariga mos keladigan mexanik xususiyatlarga ega;

2) klinik amaliyotda qo'llash uchun oddiy metodologiyaga ega bo'lish;

3) tish to'qimalari (emal va dentin) bilan biomos bo'lishi;

4) og'iz orqali qabul qilinadigan suyuqliklar ta'sirida yo'q qilinmasligi (erimasligi);

5) chaynash yuklariga yetarlicha qarshilikka ega [2–6].

So'nggi yillarda emal va dentinni to'liq konditsionerlashni o'z ichiga olgan yopishqoq tizimlar eng ommabop bo'lib qoldi [24, 25]. Bu usul yopishqoq tizimni qo'llashdan oldin dentin namligini saqlab qolish va ortofosfor kislotasi eritmalari yoki gellarini qo'llash va chayish zarurati bilan tavsiflanadi [26, 27]. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, hozirda dentin yuzasining namlik miqdorini aniqlash uchun ob'ektiv mezonlar mavjud emas [28-30]. Bu klinisyenga bog'lanish bosqichlarining to'g'ri bajarilishiga ishonch hosil qilish imkonini bermaydi [28]. Natijada, to'liq o'yish texnikasi uchun tizimlardan foydalanganda, texnologiya ko'p bosqichli va murakkab bo'lib qoladi, bu esa yuqori sezuvchanlik va asoratlarning rivojlanishiga, dentinga biriktirish kuchining pasayishiga va chekka bo'shliqning bosimining pasayishiga olib keladi [1,8,33].

Zamonaviy yopishtiruvchi tizimlar moylangan qatlamga ta'sir qilish mexanizmiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) surtma qatlamini erituvchi yopishtiruvchi moddalar (shisha ionomerlari va shisha ionomer kompozitlari uchun surtma qatlamini olib tashlovchi yopishtiruvchi moddalar);

2) surtma qatlamini olib tashlaydigan yopishtiruvchi moddalar (to'liq o'yib ishlov berish texnikasi bilan yopishtiruvchi moddalar);

3) surtma qatlamini o'zgartiruvchi yopishtiruvchi moddalar (o'z-o'zidan o'yib ishlangan yopishtiruvchi tizimlar) [17, 18].

Hozirgi vaqtda kompozit material bilan to'ldirish, barcha turdagi bilvosita konstruksiyalarni yopishtiruvchi fiksatsiya qilish, kompozit va keramik qoplamalardagi chiplarni ta'mirlash va breketlar, qoplamalar va turli xil zargarlik buyumlarini mahkamlash uchun yopishtiruvchi (yopishtiruvchi) vositalardan foydalanish majburiy talab hisoblanadi — aynan yopishtiruvchi vositalardan foydalanish orqali yopishqoq bog'lanishga erishish mumkin [3,26,32]. Ushbu bosqichni bajarmaslik yoki yopishtiruvchi tizimdan foydalanish texnologiyasini buzish kompozit va tish to'qimasi o'rtasidagi bog'lanishning buzilishiga olib kelishi mumkin, bu esa mikrobial invaziya, chekka bo'shliqlar, radial karies va hatto pulpa shikastlanishi bilan namoyon bo'ladi [7,9,19].

So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yopishtiruvchi moddalar to'g'ri ishlatilganda zaiflashgan emal va dentinni mustahkamlashi, chekka o'tkazuvchanlikni kamaytirishi va tish sezgirligini pasaytirishi mumkin [5, 17,28].

Yelimlash texnologiyalarining paydo bo'lishi va yelimlash tizimlarining rivojlanishi periodontal splintlashda sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Stomatologiyada yelimlash tizimlari bir necha evolyutsion bosqichlardan o'tdi [17–19].

Birinchi avlod yopishqoq tizimlar 1970-yillarda paydo bo'lgan. Ta'sir natijasi yopishqoq bog'lanishning emal va dentin kaltsiy bilan reaksiyasi edi [31,33]. Glitserofosfor kislotasi dimetakrilati ishlatilgan.

Glitserofosfor kislotasi dimetakrilat molekulasi ikki funksiyali bo'lib, gidrofil qism (fosfor kislotasi qoldig'i) va gidrofob qism (metakrilat guruhlari) ni o'z ichiga oladi. Gidrofil qism kaltsiy ionlari bilan bog'lanadi va tish to'qimalarida ikkilamchi dentin hosil bo'lishiga yordam beradi.

Bu ion bog‘lanish suyuqlik borligida tezda parchalanadi, natijada bog‘lanishning buzilishi va mikro oqish yuzaga keladi.

Akril va metakril kislotalarga asoslangan polimerlar stomatologiyada ko'p yillar davomida qo'llanilgan. Ular yaxshi mexanik, biologik (hidsiz, toksik bo'lmagan) va optik xususiyatlarga ega [25,27]. Qo'shaloq bog'lanishning mavjudligi polimerlanishni ta'minlaydi. Reaksiya reaksiya initsiatorining parchalanishi bilan boshlanadi. Kovalent qutbsiz bog'lanishga ega moddalar, masalan, peroksidlar (R–O–O–R), radikal reaksiyalarni boshlashga xizmat qiladi [5,8,13,17]. Yorug'lik, issiqlik yoki katalizator ta'sirida bog'lanishning gomolitik parchalanishi sodir bo'ladi va erkin radikallar hosil bo'ladi [32,33].

Metakrilatlarning yopishqoq tizimlarda keng qo'llanilishi, ularning akril qatroni bilan

birgalikda polimerlanishi biologik obyektlarga juda befarq bo'lgan, ya'ni inson tanasi uchun zararsiz bo'lgan polimerlarni hosil qilishi bilan bog'liq [20,24,26]. Bundan tashqari, glisidil metakrilat kabi ba'zi metakrilatlar kimyogarlarga akril qatronlarga epoksi guruhlarini qo'shish imkonini beradi, bu esa keyinchalik turli polimerizatsiya yoki qattiqlashish reaksiyalarini amalga oshirish imkonini beradi [2,4,7,31]. Yopishqoq tizimning emal bilan bog'lanish kuchi yetarli edi, ammo dentin naychalaridan namlik ajralib chiqishi tufayli uning dentin bilan bog'lanish kuchi pasaydi. Ushbu yopishtiruvchi moddani molar tishlarda ishlatib bo'lmadi va uni qo'llash tish sezgirligining oshishiga ham olib keldi [1,7,9,18].

Ikkinchi avlod 1980-yillarda paydo bo'lgan. Yuqori yopishish xususiyatlariga erishish uchun u surtma qatlamidan foydalangan [13,25,30].

Smetana qatlami mexanik ishlov berish (tayyorlash) jarayonida hosil bo'ladi. Bu tish va ter suyuqliklari bilan aralashtirilgan mineral va organik to'qimalarning bo'laklaridan tashkil topgan infeksiyalangan qatlamdir [2,6,12]. Uning qalinligi 1-2 mm va u dentin naychalariga kirib borishi mumkin, bu esa yopishqoq tizimga to'sqinlik qiladi [13, 26, 35].

Faol guruhlar sifatida turli monomerlarning xlor bilan almashtirilgan fosfat efirlari ishlatilgan. Birlamchi bog'lanish mexanizmi dentin kaltsiyining xlorofosfat guruhlari tomonidan ion bilan bog'lanishi bo'lib qoldi.

Bu ion bog‘lanish suyuqlik ishtirokida tezda buziladi, natijada bog‘lanishning buzilishi va mikro oqish yuzaga keladi [2, 26].

Bizning fikrimizcha, xlor o'rnini bosuvchi fosfat efirlaridan foydalanish ion bog'lanishining kuchayishiga olib kelishi mumkin, chunki gidroksil guruhlari xlorga nisbatan chiqib ketish qiyin bo'lgan guruhlardir. Ikkinchi avlod yopishtiruvchi tizimlar endi asosan zaif, ishonchsiz bog'lanishlar va smear qatlamiga bog'lanishning muvaffaqiyatsiz urinishlari tufayli ishlatilmayapti [23,25]. Avvalgi yopishtiruvchi tizimning kamchiliklarini tuzatib bo'lmadi. Dentinning yopishishi taxminan uch baravar oshdi, ammo bu hali ham yetarli emas edi. Yelimni hali ham molar tishlarga qo'llash mumkin emas edi, mikro oqish yuzaga keldi va sezgirlik muammo bo'lib qoldi. Mexanizm birinchi avlod yopishtiruvchilariga nisbatan o'zgarishsiz qoldi [22,30,31].

Uchinchi avlod 1980-yillarning oxirlarida paydo bo'lgan. Bular primer va yopishtiruvchi moddadan iborat ikki komponentli yopishtiruvchi tizimlar edi. Kompozitni dentinga biriktirish uchun, 2-avlodda bo'lgani kabi, surtma qatlami ishlatilgan [24,28]. Kimyoviy tarkibda alyuminosilikatlar, alyuminitratlar, gidroksietil metakrilat (HEMA), 4-metakriloksietil trimetil angidrid (4-M ETA) va boshqa moddalar ko'pincha faol guruhlar sifatida ishlatilgan.

